

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OILY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI**

IJTIMOIIY-IQTISODIYOT FAKULTETI

SOTSILOGIYA VA IJTIMOIIY ISH KAFEDRASI

SOTSILOGIYA YO'NALISHI.

TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MILLIY

DASTURNING AHAMIYATI

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Bajaruvchi: Raximova Zarnigor

Ilmiy rahbar: dots. Bo'riyev N.

**Malakaviy bitiruv ishi Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasida bajarildi.
Kafedraning 2011 yil ____ ____dagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga
tavsiya etildi (bayyonnoma № ____).**

Kafedra mudiri:

dots. Jo'rayev L.N.

**Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2011 yil __ ____dagi majlisida
himoya qilindi va __ foizga baholandi (bayyonnoma № ____).**

Samarqand – 2011.

***Mavzu: TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MILLIY
DASTURNING AHAMIYATI.***

Reja:

Kirish

I. BOB Ta'lim samaradorligini oshirishda Kadrlar tayyorlash Milliy dasturning o'rni.

I.1. Ta'lim to'g'risidagi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning ilmiy nazariy asoslari.

I.2. Ta'lim samaradorligini oshirishda ta'lim islohotlarining o'rni.

II. BOB O'zbekistonda ta'lim samaradorligini oshirishda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning ahamiyati.

II.1. Barkamol avlodni tarbiyalashda milliy dasturning ahamiyati.

II.2. Jamiyatni isloh qilish va modernizatsiyalashda ta'lim institutlarning o'rni.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

K I R I S h

Mavzuning dolzarbligi: Barkamol avlodni tarbiyalash masalasi insoniyat oldida turgan eng muhim masalalardan biri bo'lib kelgan. O'zbekistonda ozod va obdod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishda, erkin, demokratik va fuqarolik jamiyatini qurish jarayonida, barkamol avlod tarbiyasiga «ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ni qabul qilish va hayotga tadbiq qilish maslasiga katta e'tibor qaritilmoqda. Ta'lim tizimini isloh qilish vataniga, xalqiga, millatiga fidokor mustaqil fikrlaydigan, biron bir masalani ongli ravishda, mas'uliyat bilan hal qiladigan, izlanuvchi, yangilikka intiluvchi kadrlarni tarbiyalab voyaga yetkazishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan bo'lib, O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy – siyosiy va ma'naviy hayot sohalarida olib borilayotgan islohotlarning pirovard natijasi ham eng avvalo ta'lim sohasidagi islohotlarga, kadrlar tayyorlash masalasiga uyg'un ravishda bog'liqdir. Ayniqsa bugungi kunda, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etayotgan, O'zbekistonda bu moliyaviy-iqtisodiy inqirozning ta'sirini oldini olish va uni bartaraf etish yo'llari hamda choralari izlanayotgan bir sharoitda kadrlar saviyasi, ularning zamon va taraqqiyot talablariga javob berishi masalasi jamiyat oldida turgan eng muhim masalalardan biriga aylanib bormoqda. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» to'g'risidagi Qonunlariga muvofiq amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatimizdagi barcha davlat va ijtimoiy tashkilotlarni, har bir fuqaroni faol mehnatga safarbar etmoqda. O'zbekistondagi va chet ellardagi tajribalar tajribalar shuni ko'rsatadiki, kadrlar tayyorlash sifatini yuksaltirish yo'lidagi islohotlar jarayonida eng avvalo asosiy e'tibor ta'lim tizimini mukammallashtirishga qaratilib, avvallari shuning o'zi ma'qul va yetarli deb hisoblangan.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi: Kadrlar tayyorlash jarayoni subyektlarning barcha murakkab munosabatlarini hisobga olish, ularning funktsional burch va huquqlarini aniq belgilash, mehnat bozori ehtiyojlari, mamlakat va uning turli mintaqalarining ijtimoiy iqtisodiy ahvoli va taraqqiyot

istiqbollarini hamisha e'tiborda tutishi talab qilinadi. Ana shularni hisobga olgan holda, islohotlarning ustuvorlik va bosqichma-bosqich prinsiplari asosida kadrlar tayyorlash va ta'lim tizimini isloh qilishning uzoq muddatli strategiyasi ishlab chiqildi. Bu islohotlar konsepsiyasi negizini mutaxassislar tomonidan haqli ravishda «Islom Karimov modeli» deb baholayotgan kadrlar tayyorlashning prinsipial yangi Milliy modelini tashkil etadi. Ushbu model o'ziga xos jahon tajribasida betakror bo'lib, agar kadrloash tayyorlash tizimini rivojlantirishsohasidagi xorijiy tajribalar bu sohadagi islohotlarda faqatgina ta'lim tizimini o'zgartirishga yo'naltirilgan bo'lsa, O'zbekistondagi islohotlarda shaxs, davlat va ijtimoiy institutlar, ishlab chiqarish, ilf-fan kabi kadrlar tayyorlash jarayonining muhim subyektlari ham e'tiborga olinib, islohotlar o'zining ko'lami kengligi va mazmuni chuqurligi, hamda ilmiy asoslanganligi bilan ajralib turadi. Ta'lim sohasidagi islohotlarning eng muhim jihatlaridan biri shundan iboratki, O'zbekistonda islohot davlat tomonidan boshlanadi va amalga oshirilmoqda, uning muvaffaqiyati va samarali rivojlanishi uchun kafil ham davlatning o'zidir. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» to'g'risidagi Qonunlari kadrlar tayyorlash Milliy modelining me'yoriy asosini, uni amalga oshirish usuli va mexanizmini yaratib berdi.

Ta'lim – tarbiya islohoti gapirar ekanmiz, uning mazmunini lo'nda qilib ifoda etish mumkin: bizga bitiruvchilar emas, maktab ta'limi va tarbiyasini ko'rgan shaxslar kerak¹, - deb ta'kidlaydilar Islom Karimov.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari: O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da amaldagi kadrlar tayyorlash tizimining ahvoli, mavjud muammolar atroflicha tahlil qilingan, uni tubdan o'zgartirish zaruratiga asoslanib, rivojlanishning strategik yo'nalishlari va dasturini amalga oshirishdan kutilgan asosiy natijalar ko'rsatib berilgan. Kadrlar tayyorlash Milliy modelining o'ziga xosligi, noyobligini unga shaxs davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, ilm-fan, ishlab chiqarish kabilarning asosiy tarkibiy komponentlari sifatida kiritilganligi, har bir komponentning to'laqonligi, tutgan o'rni va roli aniq belgilanganligini, ularning

¹ Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T, Sharq, 1997 yil, 9 bet.

o'zaro ta'sir mexanizmlari, bosh maqsad raqobatbardosh yuqori malakali kadrlar tayyorlash ishiga strategik yo'naltirilganligi singari fazilatlar tashkil etadi. Shaxs kadrlar tayyorlash tizimida iste'molchi sifatida ham, umumta'lim xizmatlarining yaratuvchisi sifatida ham ishtirok etadi. Umumta'lim xizmatlari iste'molchisi sifatida Shaxsga Davlat ta'lim standartlari tomonidan sifatli ta'lim va kasb hunar tayyorgarligi kafolatlanadi. Ta'lim xizmatlarini amalga oshiruvchi sifatida esa Shaxs munosib darajada malaka egallaganidan so'ng, bilim va tajribalarini ta'lim jarayonida yangi avlodga o'rgatish, moddiy ishlab chiqarish, ilm-fan va madaniyat va maishiy xizmat sohalarida faoliyat ko'rsatish bilan shug'ullanadi. Har bir fuqarosi qabul qilingan konstitusiyaviy qadriyatlarga, tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy-tarixiy, milliy-ma'naviy sharoitlardan kelib chiquvchi yuksak axloqiy norma va ko'nikmalarga qat'iy rioya etgan taqdirdagina jamiyat va davlat muvaffaqiyatli rivojlanadi. Har bir odam faqat ta'lim, ijtimoiy tarbiya va ma'naviy kamolot, kasb-hunar o'rganish tizimi vositasidagina Shaxs bo'lib shakllanadi. Natijada shaxsning ijtimoiy kamol topishi – uning jamiyat uchun foydali funksiyalarni bajarishi, o'z vazifa va burchlarini puxta va ijodiy anglab, boshliqlar bilan teng, mustaqil munosabatlarga kirishuvi yuz beradi.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti va predmeti: Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi ta'lim sifatini yaxshilash, eng avvalo iqtidorli bolalar uchun maktablar ochish, korxonalar bilan maktablar o'rtasida sifat jihatidan yangi munosabatlarni joriy etish, kasb-hunar ta'limi sifatini keskin oshirish, oliy ta'lim tizimida mutaxassislar tayyorlash sifatini yanada takomillash, masalalarini ko'zda tutadi. Ta'limning yangi modeli jamiyatimizning potensial kuchlarini ro'yobga chiqarishda juda katta ahamiyat kasb etadi. Havr qaysi inson o'z noyob qobiliyat va iste'dodini o'zi uchun, oilasining, millati va halqining, davlatining farovonligi, baxt-saodati, manfaati uchun to'liq baxshida etsa, bunday jamiyat shu qadar kuchli taraqqiyotga erishadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezideknti Islom Karimov tomonidan taklif etilgan va «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun hamda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» asosida hayotga tatbiq etilgan uzluksiz ta'limning tamomila yangi tizimi

O'zbekiston fo'qarolari XXI asrdagi avlodni tarbiyalash va shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi: Kirish, 2 ta bob, 4 paragraf, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Xulosa qismida yuqoridagi boblar va paragraflarda ifodalangan fikrlardan kelib chiqqan xolda umumiy fikrlar bayon etilgan.

I. BOB Ta'lim samaradorligini oshirishda Kadrlar tayyorlash Milliy dasturning o'ri.

1. Ta'lim to'g'risidagi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ilmiy nazariy asoslari.

O'zbekiston Respublikasi inson huquklari va erkinliklariga rioya etilishini, jamiyatning ma'naviy yangilanishini, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni, jahon hamjamiyatiga qo'shilishni ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurmoqda.

Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

Oliy Majlisning IX sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov «Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» nutqida ta'lim tizimida erishilgan muvaffaqiyat va kamchiliklarni obyektiv tahlil qilib, kadrlar tayyorlashda **«revolyusion»** islohotga ehtiyoj borligini isbotlab berdi.

Avvalo, nutqda ta'lim mazmuni **«eski sho'rolar zamonidan qolgan ta'lim-tarbiya tizimiga xos mafkuraviy qarashlardan va sarqitlardan butunlay xalos bo'lmagan»ligi**, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar yunalishdagi fanlar, estetik yunalishdagi predmetlarni uqitish, tarbiyaviy-ma'rifiy faoliyat mazmuni va uni tashkil etish dolzarb muammo ekanligi ta'kidlandi. 1992 yilgi «Ta'lim tug'risida»gi Qonun uz vaqtida muhim bulgan bulsada, ammo ta'lim tizimini isloh qilishning amaliy chora-tadbirlari ta'lim-tarbiya va o'quv jarayonlarining tarkibini, bosqichlarini bir-biri bilan uzviy bog'lash, ya'ni uzluksizlikni ta'minlash muammolarini yecha olmadi.

Eng asosiy kamchilik bu — o'sib kelayotgan avlodni mustaqil fikrlashga o'rgatmaslik, mehnat faoliyatiga tayyorlamaslik muammosining paydo bo'lganligi edi. Respublikada har yili o'rtacha 450 mingdan ortiq o'quvchi 9-sinfni bitiradi. Ularning 250 mingi (55%) yuqori sinflarda o'qishi davom ettirardi, 100 mingga yaqini esa hunar texnika, o'rta maxsus bilim yurtlariga kirib o'qishi davom ettirish imkoniyatiga ega edi. Natijada 100 mingdan oshiq bola ta'lim olish yoki mehnat faoliyatiga jalb qilinmasdan qolib ketardi. Na bir aniq mutaxassislikni, na bir kasbni, biror bir mehnat faoliyati kunikmalarini egallamagan maktab bitiruvchilari (jumladan 11-sinfni bitirganlar ham) **o'z qobiliyati, havasi va intilishlariga mos, hayotda o'ziga munosib o'rin** topolmadi.

9 va 11-sinflar darajasidagi ta'lim dasturlarida ikkita «uzilish» bor edi. Umumta'lim va kasb-hunar dasturidagi uzluksizlik, izchillik ikkinchi bosqichda, ya'ni hunartexnika va o'rtamaxsus ta'lim tizimida yanada buzildi. Buni quyida keltirilgan sxemada yaqqol kurish mumkin. Shuningdek, Prezidentimizning yuqorida ta'kidlangan nutqida aytilganidek **«...bilim va tarbiyaning sifati, o'quvchilar olayotgan juda tor ixtisos-mutaxassisligi, shu bilan birga, tarbiyachi-o'qituvchilar malakasining pastligi, bu bilim yurtlarining umuman bugungi kun talabiga javob bermasligi»** namoyon bo'ldi.

Eski ta'lim tizimidagi yuqorida ta'kidlangan qator kamchiliklar va muammolarni tugatish istagi **«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning** yaratilishiga sabab bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan taklif etilgan uzluksiz ta'limning tamomila yangi tizimi yuqorida aytilgan kamchiliklarni bartaraf etib, O'zbekiston fuqarolarining XXI asr avlodini shakllantirishga sharoit yaratadi.

Uzluksiz ta'lim tizimining eski tizimdan ustunligi, ilmiy asoslanganligi va kadrlar tayyorlashdagi mavjud bo'lgan muammolarni yecha olishini yaxshi tasavvur qilish uchun keltirilgan sxemaga murojaat qilaylik.

Mavjud ta'lim tizimida, sxemada ko'rsatilganidek, **umumta'lim dasturlarining** ikki joyida, ya'ni tayanch (1—9 sinflari) ta'lim dasturlari bilan

umumiy o'rta ta'lim hamda boshlang'ich va o'rtamaxsus ta'lim tizimi dasturlari o'rtasida «uzilish»lar mavjudligi ko'zga yaqqol tashlanadi. Bu uzilishlar natijasida ta'lim dasturlarining uzviyligi buzildi. Natijada bolalarimizning kasb-hunarsiz kuchada qolib ketishi hollari yuz berdi. O'quv fanlari dasturlarining bir-biriga nomutanosibligi, zamon talablariga javob bermasligi, ularda qaytarish va takrorlashlar ko'pligi ham uning ilmiy asoslanmaganidan dalolat beradi.

Kiritilayotgan uzluksiz ta'lim tizimining eng ko'zga ko'ringan yutuqlaridan biri ham aynan shu «uzilish»larni yo'qotishdan iborat bo'ldi.

Avvalambor, ilmiy asoslanmagan 11 yillik umumiy o'rta ta'lim tizimi 9 yillik o'quv tizimiga keltirildi. Unda o'quv fanlarining soni kamaytirilib samara beradigan darajaga yetkazildi, o'quv dasturlaridagi ko'pgina takrorlashlar olib tashlandi, mazmun jihatdan o'quv fanini o'zlashtirishni qiyinlashtirgan ba'zi boblar, qismlar ta'lim dasturlarining yuqori bosqichlariga o'tkazildi.

Shu bilan umumta'lim dasturlari keyingi ta'lim turlari — o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim tizimi dasturlari bilan o'zaro uyg'unlashib uzluksiz ta'lim tizimini tashkil etdi.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, akademik lisey va kasb-hunar kollejlarini tamomlagan bitiruvchilar oliy o'quv muassasalariga kirishda bir xil imkoniyatlarga ega bo'ladilar, ya'ni ular teng huquqlidirlar.

O'z navbatida keyingi bosqich — oliy o'quv yurtlarida o'qishi davom ettirishni xohlamagan yoshlarimiz o'z egallagan kasb-korlari bo'yicha mehnat bozorida faoliyat ko'rsatishlari mumkin bo'ladi.

«Ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurilish jarayonlariga moslash» ham asosiy vazifadir. Milliy dasturdan olingan bu jumlar zaminida chuqur ma'no bor.

Ta'lim tizimini rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayoniga moslash deganda o'quvchi milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirishi va shular asosida mustaqil fikrlashga ega bo'lishi, o'z huquq va burchlarini o'qish jarayonida o'rganib borishi tushuniladi.

Milliy dasturning vazifalaridan yana biri ta'lim va kadrlar tayyorlash, ta'lim muassasalarini attestasiyadan o'tkazish va akkreditasiya qilishning xolis tizimini joriy etishdir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo'lib, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir.

Dastur kadrlar tayyorlash milliy modelini ro'yobga chiqarishni, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o'zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutadi.

Hozirgi zamon ijtimoiy hayot sohalarida ajoyib kashfiyotlar, murakkab jarayonlar, universal texnologiyalar bilan bog'liq umumbashariy jarayonlar yuz bermoqda. «O'zbekiston innovasion rivojlanish turining hozirgi zamon modeliga o'tish uchun hamma zarur sharoitlarga ega. Bu model vujudga keltirilgan ilmiy texnikaviy salohiyatidan keng va samarali foydalanishga, fundamental va amaliy fanning yutuqlarini, chuqur ilm talab qiladigan texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etishga, yuqori malakali, iqtidorli ilmiy kadrlar sonini ko'paytirishga asoslanadi. Bu mamlakatimiz jahondagi iqtisodiyotni va sanoatni rivojlangan davlatlar qatoriga kirib borishining zarur sharti va mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi»⁶ - deb ta'kidlaydilar Prezidentimiz I.A.Karimov.

Bugungi kun talablaridan kelib chiqib, ta'lim-tarbiya jarayonida barkamol avlodni shakllantirish lozim, uning natijasi, mahsulasi o'laroq mustaqil fikrlovchi, ijodiy izlanuvchi kuchli irodali, ishchan, g'oyaviy e'tiqodli ma'naviyatli yuksak,

⁶ I. A. Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: «Sharq», 1998 67-bet.

pok vijdonli yoshlarni tarbiyalash dolzarb vazifadir.

O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ning qabul qilinishining eng asosiy sabablari va vazifalari qo'yidagilardan iborat.

kadrlar tayyorlash tizimining demokratik o'zgarishlar va bozor islohotlari talablariga muvofiq emasligi;

o'quv jarayonining moddiy-texnika va axborot bazasi yetarli emasligi;

yuqori malakali pedagog kadrlarning yetishmasligi;

sifatli o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyot hamda didaktik materiallarning kamligi;

ta'lim tizimi, fan va ishlab chiqarish o'rtasida puxta o'zaro hamkorlik va o'zaro foydali integrasiyaning yo'qligi;

kadrlar tayyorlash tizimidagi jiddiy kamchiliklar O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" ning qabul qilinishiga sabab bo'ldi.

Davlat va jamiyat kadrlar tayyorlash tizimining amal qilishi va rivojlanishining kafolati, Milliy model barcha subyektlari faoliyatini tartibga soluvchi sifatida maydonga chiqdi.

Davlat va jamiyat:

— fuqarolarning ilm olish huquqini ularning kasb tanlash va malaka oshirish imkoniyatlarini;

— akademik lisey yoki kasb-hunar kollejlarida o'qib-o'rganish yo'nalishini tanlash huquqini beruvchi majburiy umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumoti olishni;

— davlat grantlari bazasida yoki pullik-bitim asosida oliy va undan yuqori darajalarda ma'lumot olish huquqini;

— davlat ta'lim muassasalarining moliyaviy ta'minotini;

— o'quvchilarning o'qish, yashash va dam olish sharoitlarini ta'minlash masalalarini hal etish yuzasidan jamoatchilik boshqaruvini rivojlantirishni;

— ta'lim jarayon qatnashchilarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni;

— ta'lim muassasalarining pedagog xodimlari, ota-onalar (yoki ularning qonuniy vakillari)ning bolalar va o'smirlarning o'qitish, tarbiyasi, hayoti va

sog'ligini himoya qilish uchun mas'uliyatlarini oshirish yuzasidan me'yoriy-huquqiy hujjatlarning amal qilish faolligini kafolatlaydi.

Shunday qilib, shaxs uchun sifatli kasb-hunar tayyorgarligi, ijtimoiy rag'bat va himoya, jamiyatdagi tegishli, munosib mavqye, favqulodda holatlarda yordam olish davlat tomonidan kafolatlanadi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi ilm-fanni ham katta ahamiyatli komponent sifatida o'z ichiga oladi. Bunda ilm-fanning:

— tabiat va jamiyatning rivojlanish qonuniyatlariga oid yangi fundamental va amaliy bilimlarini shakllantirish, o'rganish, keng yoyish va kadrlar tayyorlash tizimida foydalanish uchun eng muhim yangi ilmiy natijalarni markazlashtirish;

— yuksak malakali ilmiy va pedagogik kadrlar tayyorlash;

— kadrlar tayyorlash jarayonining ilmiy-tadqiqotlar infra-strukturasini yaratish, turli sohalar bo'yicha ta'lim, axborot tarmoqlarida foydalanish uchun ma'lumotlar bazalarini shakllantirish;

— mamlakat ilm-fanining umumjahon ilm-fani bilan integrasiyalashuvi, hozirgi zamon ilm-fani va texnologiyalarining eng muhim muammolarini hal etish uchun xalqaro ilmiy yutuqlar va kadrlar almashinuvini yo'lga qo'yish kabi fazilatlari nazarda tutiladi.

Kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning yangi strategiyasi ilm-fanning mazkur tizimda tutgan o'rni va rolini tubdan qayta ko'rish, uning funktsiya va vazifalarini aniq belgilab berish zaruratini ilgari surdi.

Milliy dasturga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimida ilm-fan quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

— yuksak malakali raqobatbardosh kadrlar buyurtmachisi sifatida maydonga chiqadi;

— ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uchun yuksak malakali mutaxassislar tayyorlaydi;

— uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida o'quv-tarbiya jarayonining ilmiy-metodik ta'minotini amalga oshiradi.

Milliy dasturni amalga oshirish ilm-fanning kadrlar tayyorlash tizimida

butunlay yangi sifatda, yangi vazifalarni bajarishini, rivojlanishining yangi prinsipial bosqichiga ko'tarilishini taqozo etadi. Bu bosqichda ilm-fan uchun quyidagi xarakterli xususiyat hisoblanadi:

- ta'lim muammolarini fundamental, ilmiy tadqiqiy, tajriba-konstruktorlik va amaliy tadqiqotlar yordamida hal etish samaradorligining keskin ortishi, davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini, o'quv-metodik majmualarni amalga kiritish;
- ijtimoiy va pedagogik jarayonlarni o'rganishning dasturiy-maqсадli, tuzilma-tizimli va kompleks yondashuvlaridan foydalanish;
- ijtimoiy hayot va ta'lim amaliyoti, ilg'or pedagogik tajriba bilan uzviy aloqada bo'lish;
- olimlarning pedagogik jarayonda eng faol ishtiroki, ilmiy-tadqiqotlar jarayoniga o'quvchi-talabalarning jalb etilishi;
- tadqiqotlarning yuksak texnologiyaviy darajasi, ularning ta'lim amaliyotida qo'llanilishi.

Oliy o'quv yurtlari, ilmiy muassasalar va ilm-fanni boshqarish tashkilotlarda ishlab chiqarish, madaniyat, ta'lim va ilm-fanning o'z talab-ehtiyojlarini qondirish uchun iste'dodli yosh mutaxassislar, ilmiy-pedagogik xodimlar orasidan yuksak malakali ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlarni tanlab olish, tayyorlash shart-sharoitlari va eng samarali mexanizmlari ishlab chiqilishi lozim.

I.2. Ta'lim samaradorligini oshirishda ta'lim islohotlarining o'rni.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida amalga oshiralayotgan isloholtilar jamiyatda sodir bo'layotgan demokratik o'zgarishlar, yangi jamiyat barpo etish yo'lidan dadil yetaklovchi, harakatlantiruvchi ichki kuchga aylanmoqda. «Ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib, odamlar ongini demakki, ularning turmush tarzini ham o'zgartirish mumkin emas»⁷ - deb ta'kidlaydilar Prezidentimiz I.A.Karimov.

Yurtboshimiz ta'lim-tarbiya islohotning zarurligi va muhimligi haqida o'zining qator asarlarida va nutqlarida ham qayta-qayta to'xtab o'tadilar. 1997 yil Oliy Majlis IX sessiyasida so'zlagan nutkida shu vaqtgacha amalga oshirilgan tadbirlar talabga javob bera olmayotganligini, eski sho'rolar zamonidan qolgan ta'lim tarbiya tizimiga xls mafkuraviy qarashlardan va sarqitlardan to'liq qutila olmaganligimiz, ikkinchidan o'zgarishlar yuzaki bo'lib ta'lim – tarbiyani bir-biri bilan uzviy bog'lash, ya'ni uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini tashkil qilish muammolarini yechimb bermaganligi, uchinchidan bizning amaldagi ta'lim tarbiya tizimimiz bugungi zamonaviy, taraqqiy topgan demokratik davlatlar talablariga javob bera olomasligi...⁸ kabilar ham bu islohotni zarurligini ko'rsatadi.

Mazkur dasturning maqsadi — ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir.

Ushbu maqsadni ro'yobga chiqarish quyidagi vazifalar hal etilishini nazarda tutadi:

- «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ta'lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari hamda ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta'lim tizimini

⁷ I.A.Karimov. Xalqimiz jipsligi-tinchlik va tarqqiyot garovi. Oliy Majlis XII sessiyasidagi ma'ro'za // «Ma'rifat» gazetasi, 1998 yil, 29 avgust.

⁸ I.A.Karimov. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining roydevori. T, «Sharq», 1998, 6-bet.

yagona o'quv ilmiy ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta'minlash;

- ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslash;

- kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarish;

- kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;

- ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;

- ta'lim va kadrlar tayyorlash, ta'lim muassasalarini attestasiyadan o'tkazish va akkreditasiya qilish sifatiga baho berishning xolis tizimini joriy qilish;

- yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta'limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko'rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta'minlovchi normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;

- ta'lim, fan va ishlab chiqarish samarali integrasiyalashuvini ta'minlash, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning talablarini, shuningdek nodavlat tuzilmalari, korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirishning mexanizmlarini ishlab chiqish;

- uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimiga byudjetdan tashqari mablag'lar, shu jumladan chet el investisiyalari jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

- kadrlar tayyorlash sohasida o'zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Milliy dasturning maqsad va vazifalari bosqichma-bosqich ro'yobga chiqariladi.

Birinchi bosqich (1997—2001 yillar) — mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va

rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish.

Ushbu bosqichda quyidagilarni amalga oshirish zarur:

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonunga muvofiq ta'lim tizimi mazmunini tarkibiy qayta qurish va tubdan yangilash;

- pedagog va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishni zamon talablariga javob beradigan darajada tashkil etish;
- ta'lim oluvchilarning yuksak tayyorgarlik, darajasi, malakasi, madaniy va ma'naviy-axloqiy saviyasining sifatiga nisbatan qo'yiladigan zarur talablarni belgilab beruvchi davlat ta'lim standartlarini yaratish va joriy etish;
- o'quv-uslubiy majmualarning hamda ta'lim jarayoni didaktik va axborot ta'minotining yangi avlodini ishlab chiqish va joriy etish;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uchun zarur moddiy-texnika, o'quv-uslubiy va kadrlar bazasini tayyorlash;
- ta'lim va kadrlar tayyorlashga byudjetdan tashqari mablag'lar jalb etishning mexanizmlarini takomillashtirish, davlat ta'lim muassasalari bilan bir qatorda nodavlat ta'lim muassasalarini rivojlantirishni ham nazarda tutgan holda ta'lim xizmati ko'rsatish sohasida raqobatga asoslangan muhitni vujudga keltirish;
- ta'lim muassasalari faoliyatiga baho berishning reyting tizimini, kadrlar tayyorlash sifati va ularga bo'lgan ehtiyojning monitoringini olib borish tizimini ishlab chiqish va joriy etish;
- xalqaro aloqalarni kengaytirish va kuchaytirish, kadrlar tayyorlashda xalqaro donorlik tashkilotlari va fondlari faoliyatiga tegishli sharoitlar yaratish, shuningdek respublika ta'lim sohasiga chet el investisiyalarini jalb etish bo'yicha real chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish;

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro'yobga chiqarishning monitoringini olib borish.

Ushbu bosqichda bolalarni olti-yetti yoshdan maktabga habul qilish ularning jismoniy va aqliy jihatdan rivojlanganligini e'tiborga olgan holda amalga oshiriladi. Taqozo etilayotgan o'quvchi o'rinlari zarur moddiy-texnika shart-

sharoitlari va pedagog kadrlar bilan ta'minlagan holda izchil tayyorlanadi.

Birinchi bosqich bajarilishining monitoringi asosida Milliy dasturni ro'yobga chiqarish yo'nalishlariga aniqliklar kiritiladi.

Ikkinchi bosqich (2001—2005 yillar) — Milliy dasturni to'liq ro'yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritish.

Majburiy umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga, shuningdek o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga qarab, tabaqalashtirilgan ta'limga o'tish to'liq amalga oshiriladi.

Ta'lim muassasalarini maxsus tayyorlangan malakali pedagog kadrlar bilan to'ldirish ta'minlanadi, ularning faoliyatida raqobatga asoslangan muhit vujudga keltiriladi.

Ta'lim muassasalarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlash davom ettiriladi, o'quv-tarbiya jarayoni yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlanadi. Uzluksiz ta'lim tizimini axborotlashtirish amalga oshiriladi.

Ta'lim xizmati ko'rsatish bozorini shakllantirish mexanizmlari to'liq ishga solinadi.

Uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillar) — to'plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish.

Ta'lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalari yanada mustahkamlanadi, o'quv-tarbiya jarayoni yangi o'quv-uslubiy majmualar, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlanadi.

Milliy (elita) oliy ta'lim muassasalarini qaror toptirish va rivojlantirish amalga oshiriladi. Kasb-hunar ta'limi muassasalarining mustaqil faoliyat yuritishi va o'zini o'zi boshqarishi shakllari mustahkamlanadi.

Ta'lim jarayonini axborotlashtirish, uzluksiz ta'lim tizimi jahon axborot tarmog'iga ulanadigan kompyuter axborot tarmog'i bilan to'liq qamrab olinadi.

Kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishning muhim omillari quyidagilardan iborat:

respublikaning demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan izchil ilgarilab borayotganligi;

mamlakat iqtisodiyotida tub o'zgartirishlarning amalga oshirilishi, respublika iqtisodiyoti asosan xom ashyo yo'nalishidan raqobatbardosh pirovard mahsulot ishlab chiqarish yo'liga izchil o'tayotganligi, mamlakat eksport salohiyatining kengayayotganligi;

davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi qaror topganligi;

milliy o'zlikni anglashning o'sib borishi, vatanparvarlik, o'z vatani uchun iftixor tuyg'usining shakllanayotganligi, boy milliy madaniy-tarixiy an'analarga va xalqimizning intellektual merosiga hurmat;

O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integrasiyasi, respublikaning jahondagi mavqeyi va obro'-e'tiborining mustahkamlanib borayotganligi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iboratdir:

shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obykti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi;

davlat va jamiyat — ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;

uzluksiz ta'lim — malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi;

fan — yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi;

ishlab chiqarish — kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatidan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.

Davlat va jamiyat uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi barcha uchun ochiq bo'lishini va hayot o'zgarishlariga moslanuvchanligini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi tomonidan inson huquqlari, ta'lim, bola huquqi sohasidagi shartnomalar va konvensiyalarning bajarilishi, kadrlar tayyorlash sohasida jahon ilg'or tajribasini hisobga olish uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining barcha jihatlariga daxldor bo'lib, uning rivojlanishi omillaridan biridir.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs — fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi. Shu tarzda fuqaroning eng asosiy konstitusiyaviy huquqlaridan biri bilim olish, ijodiy qobiliyatni namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanish, kasbi buyicha mehnat qilish huquqi ruyobga chiqariladi.

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonun umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi standartlari orqali sifatli ta'lim olish, shuningdek ta'lim va kasb-hunar jihatdan tayyorgarlikning shakllari va turlarini tanlashni, uzluksiz malaka oshirib borish, zarurat taqozo etsa, tegishli qayta tayyorgarlikdan o'tish huquqini va keng imkoniyatlarini nazarda tutadi.

Ta'lim xizmatlarining istemolchisi sifatida shaxsga davlat ta'lim olish va kasb-hunar tayyorgarligi ko'rish kafolatlanadi. Ta'lim olish jarayonida shaxs davlat ta'lim standartlarida ifoda etilgan talablarni bajarishi shart.

Shaxs ta'lim xizmatlarining yaratuvchisi sifatida tegishli malaka darajasini olgach, ta'lim, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat va xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatadi va o'z bilimi va tajribasini o'rgatishda ishtirok etadi.

Davlat va jamiyat kadrlar tayyorlash tizimi amal qilishi va rivojlanishining kafillari, yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash bo'yicha ta'lim muassasalarining faoliyatini uyg'unlashtiruvchi sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Davlat va jamiyat quyidagilarga, chunonchi fuqarolarning bilim olish, kasb tanlash va o'z malakasini oshirish huquqlari ro'yobga chiqarilishiga;

Majburiy umumiy o'rta ta'lim hamda akademik lisey yoki kasb-hunar kollejida ta'lim olish yo'nalishini tanlash huquqi asosida majburiy o'rta maxsus,

kasb-hunar ta'limi olishga;

davlat grantlari yoki pullik-shartnomaviy asosda oliy ta'lim va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim olish huquqiga;

davlat ta'lim muassasalarini mablag' bilan ta'minlashga;

ta'lim oluvchilarning o'qishi, turmushi va dam olishi uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi vazifalar hal etilishida jamoatchilik boshqaruvini rivojlantirishga;

ta'lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga; sog'liq va rivojlanishda nuqsoni bo'lgan shaxslar ta'lim olishiga kafolat beradilar.

Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir.

Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

Uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish prinsiplari quyidagilardan iborat: ta'limning ustuvorligi — uning rivojlanishining birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta'lim va yuksak intellektning nufuzi;

ta'limning demokratlashuvi — ta'lim va tarbiya uslublarini tanlashda o'quv yurtlari mustaqilligining kengayishi, ta'limni boshqarishning davlat jamiyat tizimiga o'tilishi;

ta'limning insonparvarlashuvi — inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta'limga nisbatan bo'lgan turli-tuman ehtiyojlarining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiyat va atrof-muhit o'zaro munosabatlarining uygunlashuvi;

ta'limning ijtimoiylashuvi — ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish;

ta'limning milliy yo'naltirilganligi — ta'limning milliy tarix, xalq an'analari

va urf-odatlar bilan uzviy uyg'unligi, O'zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotning o'rta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmatlash;

ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, bu jarayonning har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo'naltirilganligi;

iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.

Uzluksiz ta'lim sohasidagi islohotlar quyidagilarni nazarda tutadi:

ta'lim tizimining kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash, tarbiyachi, o'qituvchi, muallim va ilmiy xodimning kasbiy nufuzini oshirish;

davlat va nodavlat ta'lim muassasalarining har xil turlarini rivojlantirish;

ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta'lim, fan, texnika va texnologiyaning, iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta'lim va kasb-hunar ta'limi dasturlarini tubdan o'zgartirish;

majburiy umumiy o'rta ta'limdan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga o'tilishini ta'minlash;

maxsus, kasb-hunar ta'limining markazlari sifatida fan va ishlab chiqarish integrasiyalashgan yangi tipdagi o'quv muassasalarini vujudga keltirish;

ilg'or texnologiyalarni keng o'zlashtirish, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, chet el investisiyalari ko'lamlarining kengayishi, tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesni rivojlantirish bilan bog'liq yangi kasb-hunar va mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar, shu jumladan boshqaruv tizimi kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

milliy mustaqillik prinsiplari va xalqning boy intellektual merosi hamda umumbashariy qadriyatlarining ustuvorligi asosida ta'limning barcha darajalari va bug'inlarida ta'lim oluvchilarning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish; ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, jamoat boshqaruvi shakllarini rivojlantirish, ta'lim muassasalarini mintaqalashtirish;

ta'lim olishda, shuningdek bolalar va yoshlarni ma'naviy-axloqiy,

intellektual va jismoniy jihatdan tarbiyalashda oila, ota-onalar, jamoat tashkilotlari, mahallalar, xayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish yuzasidan choratadbirlar ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish;

ta'lim jarayoni va kadrlar tayyorlash sifatiga xolis baho berish tizimini yaratish va joriy etish;

ta'lim tizimini moliyaviy, moddiy-texnika va boshqa tarzdagi resurslar bilan ta'minlash mexanizmlarini shakllantirish;

uzluksiz ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integrasiyalashtirishning puxta mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish;

ta'lim va ilm-fan bilan bog'liq chet el hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish va rivojlantirish;

tub yerli millatga mansub bo'lmagan shaxslar zich yashaydigan joylarda ular o'z ona tillarida ta'lim olishlari uchun tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlar yaratish;

ta'limning barcha darajalarida ta'lim oluvchilarning huquqiy, iqtisodiy, ekologik va sanitariya gigiyena ta'limi hamda tarbiyasini takomillashtirish.

Uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta'lim standartlari asosida, turli darajalardagi ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi va quyidagi ta'lim turlarini o'z ichiga oladi:

- maktabgacha ta'lim;
- Umumiy o'rta ta'lim;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;
- oliy ta'lim;
- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta'lim.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining o'ziga xos xususiyati mustaqil ravishdagi to'qqiz yillik umumiy o'rta hamda uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini joriy etishdan iboratdir. Bu esa, umumiy ta'lim dasturlaridan o'rtamaxsus, kasb-hunar ta'limi dasturlariga izchil o'tilishini ta'minlaydi.

Umumiy ta'lim dasturlari: maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim (I—IV sinflar), umumiy o'rta ta'lim (I—IX sinflar), o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini qamrab oladi.

Kasb-hunar ta'limi dasturlari o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy (bakalavriat, magistratura) ta'lim va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashni qamrab oladi.

Maktabgacha ta'lim bola sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi. Maktabgacha ta'lim bola olti-yetti yoshga yetgunicha davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarida hamda oilalarda amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim maqsadi va vazifalarini ro'yobga chiqarishda mahallalar, jamoat va xayriya-tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi.

Maktabgacha tarbiyani rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash;

maktabgacha ta'limning samarali psixologik-pedagogik uslublarini izlash va joriy etish;

bolalarni oilada tarbiyalashni tashkiliy, psixologik, pedagogik va uslubiy jihatdan ta'minlash;

zamonaviy o'quv-uslubiy qo'llanmalar, texnik vositalar, o'yinchoqlar va o'yinlar yaratish hamda ularni ishlab chiqarish;

maktab yoshdagi bolalarni xalqning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish;

maktabgacha muassasalarning har xil turlari uchun turli variantlardagi dasturlarni tanlab olish, maktabgacha tarbiyaning barcha masalalari bo'yicha malakali konsultasiya xizmati ko'rsatish imkoniyatini yaratish;

maktabgacha tarbiya va sog'lomlashtirish muassasalari tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish.

To'qqiz yillik (I—IX sinflar) o'qishdan iborat umumiy o'rta ta'lim majburiydir. Ta'limning bu turi boshlang'ich ta'limni (I—IV sinflar) qamrab oladi hamda o'quvchilarning fanlar asoslari bo'yicha muntazam "bi-lim olishlarini, ularda bilim o'zlashtirish ehtiyojini, asosiy o'quv-milliy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, mehnat kunikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lishni va kasb tanlashni shakllantiradi. Umumiy o'rta ta'lim tugallanganidan keyin ta'lim fanlari va ular bo'yicha olingan baholar ko'rsatilgan holda davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi attestat beriladi.

Umumiy o'rta ta'limning yangicha tizimi va mazmunini shakllantirish uchun quyidagilar zarur:

maktabning I—IX sinflari doirasida sifatli umumiy o'rta ta'lim olishni ta'minlovchi davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va Joriy etish, bunda akademik liseylar va kasb-hunar kollejlaridan keyin olinadigan ta'lim dasturlari bilan mantiqiy bogliqlik hisobga olinishi lozim;

yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash;

hududlarning jo'g'rofiy va demografik xususiyatlariga, shaxs, jamiyat va davlatning ehtiyojlariga muvofiq ravishda ta'lim muassasalari tarmoqlarini rivojlantirish;

o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy etish;

ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarni yaratish va o'quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash;

o'quvchilar kasb-hunar tanlaydigan va psixologik-pedagogik jihatdan maslahatlar oladigan markazlar tarmoqlarini tashkil etish.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi umumiy o'rta ta'lim negizida o'qish muddati uch yil bo'lgan majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uzluksiz ta'lim tizimidagi mustaqil turdir. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishi — akademik lisey yoki kasb-hunar kolleji o'quvchilar tomonidan ixtiyoriy tanlanadi.

Akademik lisey davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beradi. O'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Akademik Liseylarda o'quvchilar o'zlari tanlab olgan ta'lim yo'nalishi bo'yicha (gumanitar, texnika, agrar va boshqa sohalar) bilim saviyalarini oshirish hamda fanni chuqur o'rganishga qaratilgan maxsus kasb-hunar qo'nikmalarini o'zlarida shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu ko'nikmalarni o'qishni muayyan oliy ta'lim muassasalarida davom ettirish yoki mehnat faoliyatida ro'yobga chiqarishlari mumkin.

Kasb-hunar kolleji tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi beradi; o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini beradi.

Kasb-hunar kollejlari jihozlanganlik darajasi, pedagogik tarkibning tanlanganligi, o'quv jarayonining tashkil etilishi jihatidan yangi tipdagi ta'lim muassasalari hisoblanadi. Ular bir yoki bir necha zamonaviy kasb-hunarni egallash hamda tegishli o'quv fanlaridan chuqur nazariy bilim olish imkonini beradi.

Akademik liseylar va kasb-hunar kollejlarda ta'lim olish o'quvchilarga o'z bilimlarini chuqurlashtirish va tanlagan ixtisosliklariga ega bo'lishni ta'minlaydi. Akademik liseylar va kasb-hunar kollejlarning bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar beriladi. Bu diplomlar ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki egallangan ixtisos va kasb-hunar bo'yicha mehnat faoliyati bilki shug'ullanish huquqini beradi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilar zarur:

akademik liseylar va kasb-hunar kollejlari faoliyat ko'rsatishining normativ bazalarini ishlab chiqish va joriy etish;

soha uchun oliy ta'lim muassasalarining, ishlab chiqarish, fan va madaniyat sohasining mutaxassislarini jalb etgan holda yuqori malakali mutaxassislarni

tayyorlash va qayta tayyorlashni, shu jumladan chet ellarda tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil etish;

o'рта maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat standartlarini ishlab chiqish va joriy etish;

o'рта maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalari uchun ta'lim va kasb-hunar dasturlari, o'quv-uslubiy majmualar ishlab chiqish;

akademik liseylarning o'quvchilari mehnat faoliyati ko'nikmalarini egallashlari uchun ixtisoslashtirilgan dasturlar ishlab chiqish va joriy etish;

kasb-hunar kollejlarda tayyorlanadigan mutaxassislarga nisbatan ixtisos va kasb-hunar, malaka talablarining ro'yxatini ishlab chiqish;

hududlarning jug'rofiy va demografik shart-sharoitlarini va tegishli sohadagi mutaxassislarga bo'lgan mahalliy ehtiyojlarni hisobga olgan holda o'рта maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi ta'lim muassasalarining tashkil etilishini va ular oqilona joylashtirilishini ta'minlash, ularga o'quvchilarni imkon qadar oilasidan ajratmagan holda qamrab olish;

akademik liseylar va kasb-hunar kollejlarning moddiy-texnika va axborot bazalarini mustahkamlash.

Oliy ta'lim o'рта maxsus, kasb-hunar ta'limi negiziga asoslanadi hamda ikki (bakalavriat va magistratura) bosqichga ega.

Oliy ta'lim muassasalariga talabalar qabul qilish davlat grantlari negizida va pullik-shartnomaviy asosda amalga oshiriladi.

bakalavriat — mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim muddati kamida to'rt yil davom etadigan -tayanch oliy ta'limdir.

Bakalavrlik dasturi tugallanganidan so'ng bitiruvchilarga davlat attestasiyasi yakunlariga binoan kasb bo'yicha «bakalavr» darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi, kasb-hunar faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi.

Magistratura — aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta'lim muddati kamida ikki yil davom etadigan oliy

ta'limdir.

«Magistr» darajasini beradigan Davlat malaka attestasiyasi magistrlik dasturining intihosidir. Magistrlarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi, kasb-hunar faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi.

Ikki bosqichli oliy ta'lim tizimini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

bakalavriat va magistratura uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish;

oliy ta'lim muassasalari uchun professor-o'qituvchi kadrlar tayyorlash, shu jumladan chet ellardagi yetakchi o'quv va ilmiy markazlarda tayyorlash;

oliy ta'lim muassasalarida tarkibiy o'zgartishlar o'tkazish;

oliy ta'lim muassasalari boshqaruvini takomillashtirish, bu muassasalarning mustaqilligini kuchaytirish, muassislar, vasiylar kengashlari, jamoat nazorat kengashlari shaklidagi jamoat boshqaruvini joriy etish;

ta'liming fan va ishlab chiqarish bilan integrasiyasi ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

o'qishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish hamda distansion ta'lim tizimi texnologiyasi va vositalarini ishlab chiqish va o'zlashtirish;

yangi pedagogik va axborot texnologiyalari, tayyorgarlikning modul tizimidan foydalangan holda talabalarni o'qitishni jadallashtirish;

xalqning boy ma'naviy va intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ta'limning insonparvarlik yo'nalishini ta'minlash.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga, shaxsning ijodiy ta'lim kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilgan.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni oliy o'quv yurtlarida va ilmiy-tadqiqot muassasalarida (aspirantura, adyunktura, doktorantura, mustaqil tadqiqotchilik) olish mumkin. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim bosqichlari (aspirantura, doktorantura) dissertasiya himoyasi bilan yakunlanadi.

Yakuniy davlat attestasiyasi natijalariga ko'ra tegishli ravishda fan nomzodi

va fan doktori ilmiy darajasi berilib, davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar topshiriladi.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish tadbirlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonunga hamda mamlakatni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari muvofiq oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash va attestasiyadan o'tkazish tizimini takomillashtirish;

kasb ta'lim tizimi uchun oliy malakali ilmiy-pedagog kadrlarni hamda ilg'or pedagogik texnologiyalar sohasida ilmiy kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash;

rivojlangan mamlakatlarning ilgor ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlanishi uchun sharoitlar yaratib berish;

fan, texnologiya va ta'lim sohasida rivojlangan mamlakatlar bilan xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirish.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash mutaxassislarining kasb bilimlari va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirishga qaratilgan. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim muassasalaridagi o'qish natijalariga ko'ra davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi guvohnoma yoki sertifikat topshiriladi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilar zarur:

kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimi faoliyatida yangicha tarkib, mazmun hamda bu tizimni boshqarishni shakllantirish;

yuqori malakali o'qituvchi-mutaxassis kadrlar tayyorlash va sohani ular bilan to'ldirib borishni ta'minlash;

kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimining bu sohada raqobatga asoslangan muhitni shakllantirishni va samarali faoliyat olib borishni ta'minlovchi normativ bazasini yaratish;

kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim muassasalarini davlat attestasiyasi va akkreditasiyasidan o'tkazish tizimini ishlab chiqish va

amaliyotga joriy etish;

iqtisodiyotning davlat va nodavlat sektorlari, mulkchilikning turli shaklidagi tashkilot va muassasalarning talab-ehtiyojlariga muvofiq kadrlar va mutaxassislarni ildam qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni ta'minlovchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish va rivojlantirishga ko'maklashish;

professional treningning ilgor texnologiya va uskunalarini, shuningdek murakkab, fan yutuqlarini talab qiluvchi texnologiya jarayonlari imitatorlarini ishlab chiqish, yaratish va amaliy o'zlashtirib olish.

Bolalar va o'smirlarning ta'limga bo'lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqtini va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat tashkilotlari, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda maktabdan tashqari davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etadilar.

Maktabdan tashqari ta'limni rivojlantirish, uning tuzilmasi va mazmun-mundarijasini takomillashtirish vazifalarini hal etish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak:

ta'lim berish va kamol toptirishga yo'naltirilgan xizmatlar ko'rsatuvchi muassasalar tarmog'ini kengaytirish va bunday xizmatlar turlarini ko'paytirish;

milliy pedagogik qadriyatlarga asoslangan va jahondagi ilg'or tajribani inobatga oluvchi dasturlar va uslubiy materiallar ishlab chiqish;

o'quvchilarning bo'sh vaqtini tashkil etishning, shu jumladan ommaviy sport va jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish tadbirlarining, bolalar turizmining, xalq hunarmandchiligining mavjud turlari va shakllarini takomillashtirish, milliy turlari va shakllarini tiklash hamda amaliyotga joriy etish.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli salmoqli element sifatida fanni o'z ichiga oladi, bu sohada:

tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari to'g'risidagi yangi fundamental va amaliy bilimlar shakllanadi, kadrlar tayyorlash tizimida ommalashtirish,

o'rganish va foydalanish uchun kerakli ilmiy natijalar jamlanadi;

oliy malakali ilmiy va pedagog kadrlar tayyorlash amalga oshiriladi;

kadrlar tayyorlash jarayonini ilmiy-tadqiqot jihatidan ta'minlash infrastrukturasi vujudga keltiriladi, ta'limning axborot tarmoqlarida foydalanish maqsadida bilimning to'rtli sohalari bo'yicha axborot bazasi shakllantiriladi;

mamlakatimiz ilm-fanining jahon ilm-faniga integrasiyasi sodir bo'ladi, zamonaviy ilm-fan va texnologiyalarning eng muhim muammolarini hal etish uchun ilmiy yutuqlar va kadrlarni xalqaro miqyosda almashinuv amalga oshiriladi;

Kadrlar tayyorlash tizimiga ilm-fanning uzviy; ravishda kirib borishi uchun quyidagilar zarur;

ilg'or pedagogik texnologiyalarni yaratish va o'zlashtirish yuzasidan maqsadli innovasiya loyihalarini shakllantirish va amalga oshirish yo'li bilan ilm-fanning ta'lim amaliyoti bilan aloqasini ta'minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish;

ilg'or axborot va pedagogik texnologiyalarni joriy etish uchun eksperimental maydonchalar barpo etish or-qali ilmiy tadqiqotlar natijalarini o'quv-tarbiya jarayoniga o'z vaqtida joriy etish mexanizmini ro'yobga chiqarish;

Kadrlar tayyorlash milliy dastlfini samarali tarzda bajarishni ta'minlash yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish;

yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, yoshlarning ilmiy ijodiyotini har tomonlama qo'llab-quvvatlash;

ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar darajasini baholashga zamonaviy yondashuvni ro'yobga chiqarish, ilmiy tadqiqotlar va texnologik ishlanmalar natijalari tijoratlashuvi asosida olimlarning obro'-e'tibori va ijtimoiy maqomini oshirish;

mamlakat ilm-fanining xalqaro ilmiy hamjamiyatga integrasiyasini faollashtirish, ta'lim sohasi va kadrlar tayyorlashni takomillashtirish maqsadida ilmiy yutuqlar va olimlar bilan o'zaro almashinuv jarayonini kuchaytirish;

fan va texnologiyalar sohayeidagi faoliyatni ma'naviy va moddiy ragbatlantirish tizimini ishlab chiqish, talabalar va yosh olimlarning ilmiy yutuqlari

uchun maxsus mukofotlar va sovrinlar ta'sis etish, maxsus stipendiyalar sonini ko'paytirish, yoshlar ilmiy-texnika ijodiyotining doimiy ishlaydigan ko'rgazma va ekspozitsiyalarini tashkil etish,

Ishlab chiqarishning talab-ehtiyojlari kadrlar tayyorlash tizimining yo'nalishi, darajagi va miqyoslarini shakllantiradi, kasb tayyorgarligining maqsadi, vazifalari va mazmunini belgilaydi, malaka talablarini ilgari suradi, ta'limning muvoziy texnologiyalari va shakllarini tanlashni taqozo etadi. Ishlab chiqarish pirovard natijada kadrlarning sifati va ra-qobatbardoshligiga baho beradi.

Ishlab chiqarishning kadrlar tayyorlash tizimidagi vazifalari quyidagilar bilan belgilanadi, chunonchi u:

turli saviya va malakadagi mutaxassislariga bo'lgan talab-ehtiyojni shakllantiradi;

o'z ixtiyordagi moddiy-texnika, moliya, kadr resurslari hamda kadrlarni o'qitish, malakasini oshirish va qayta tayyorlash uchun zarur boshqa resurslarni berish bilan uzluksiz ta'lim tizimiga ko'maklashadi;

muassis, vasiy, donor, homiy tariqasida ayrim mutaxassislarni va guruhlarni maqsadli tayyorlashni, shuningdek turli tip va darajadagi o'quv yurtlarini moliyalashda qatnashadi;

ta'lim va ilm-fanning turli shakllardagi integrasiyasini (muvaqqat ijodiy jamoalar, o'quv-ilmiy-ishlab chiqarish majmuilari, markazlari, texnoparklar, texnopolislar) rivojlantiradi.

Ishlab chiqarishning kadrlar tayyorlash tizimidagi mavqeyini kuchaytirish quyidagi yo'llar bilan ta'minlanadi:

ta'limni korxonadagi unumli mehnat bilan, shu jumladan ishlab chiqarish amaliyoti jarayonidagi mehnat bilan qo'shib olib borish asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlash;

kadrlar tayyorlash hamda birgalikda ilmiy-texnologiya ishlanmalarini olib borishda korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish;

ta'lim oluvchilarni mehnat jamoalarida tarbiyalash (mehnat, ma'naviy va jismoniy tarbiyalash);

ishlab chiqarishning talab-ehtiyojlarini inobatga olib, texnika va texnologiyalarni rivojlantirishning yangi yo'nalishlari bo'yicha kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

ishlab chiqarishning iqtisrdiy va texnologiya muammolarini hal etish uchun oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tashkilotlarning ilmiy salohiyatini jalb etish;

pedagog kadrlarning ilg'or texnologiyalar sohasidagi malakasini bevosita ishlab chiqarishda muntazam oshirib borish;

ishlab chiqarishning yuqori malakali kadrlarini ta'lim jarayoniga va pedagogik faoliyatga jalb etish;

ishlab chiqarish amaliyotini o'tish uchun ta'lim oluvchilarni ish joylari bilan ta'minlash;

o'zaro integrasiyalangan ta'lim muassasalarini zamonaviy uskunalar, apparatlar va asboblardan jihozlash.

Shuning uchun ham amaldagi ta'lim-tarbiya tizimining zaif tomonlarini zamon talablari, jamiyatimiz kelajagi va maqsadlariga javob bermaydigan jihatlarni chuqur tasavvur qilish, erkin, badavlat yashayotgan mamlakatlar tajribasini o'rganish, o'z o'lkamizda yuksak malakali, har jihatdan yetuk kadrlar tayyorlash dasturimizning asosiy sharti bo'lmog'i lozim.

Shuning uchun ta'lim-tarbiya sohasida ham belgilanayotgan islohotlarni hayotga tatbiq qilishda mana shu prinsip islohotlarni bosqichma-bosqich o'tkazish prinsipi qo'yilgan.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini amalga oshirish bosqichlari. O'zbekistonning Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi 1997 yilning 29 avgustida g'abul qilingan bo'lib, u besh bo'limdan tashkil topgan. Dasturning ikkinchi bo'limida dasturning maqsad va vazifalari bilan birga uni ro'yobga chiqarish bosqichlari ham ko'rsatib berilgan. Dasturni maqsad va vazifalarini ketma-ket uch bosqichda amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Birinchi bosqich — o'tish davri bo'lib, u 1997—2001 yillarda, ya'ni 4 yil davomida joriy etiladi. Bunda kadrlar tayyorlash tizimi salohiyatini saqlab qolish, uning rivojlanishi uchun huquqiy-me'yoriy, ilmiy-metodik, moliyaviy-moddiy

shart-sharoitlar yaratish lozim. Bu bosqichda asosan quyidagi vazifalarni bajarish kerak:

Milliy dasturni amalga oshirishning boshlanishi: yangi talablarga javob bera oladigan pedagog kadrlarni tayyorlash; o'quv standartlarini yaratish va yangi o'quv programmalari ustida ishlash; umumta'lim maktablarini tuzilish jihatidan qayta qurish; uch yillik ta'lim — o'rta maxsus va kasb-hunar bilim yurtlari (kasb kolleji va akademik lisey) tizimiga zamin tayyorlash; uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimiga asos soladigan tadbirlarni amalga oshirish; ijtimoiy himoyani kafolatlash kabi masalalarni yechish bosqichi.

Ikkinchi bosqich — 2001—2005 yillarni o'z ichiga oladi. Bunda Milliy dasturni keng miqyosda to'liq amalga oshirishga erishish darkor. Tabiiyki, tizim faoliyatining samaradorligini, mehnat bozorini inobatga olib, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitdan kelib chiqib, dastur g'oyalari va qoidalariga kerakli o'zgartishlar kiritiladi.

Uchinchi bosqich — 2005 va keyingi yillarga mo'ljallangan bo'lib, unda to'plangan tajribalarni tahlil etish va umumlashtirish asosida o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni e'tiborga olgan holda kadrlar tayyorlashtizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish zarur.

Biz shoshilmasdan, asosiy maqsaddan og'ishmay, izchillik bilan milliy dasturni amalga oshirishimiz lozim. Shundagina u umumiy madaniyatni yuksaltirishga, farzandlarimizning jamiyatda o'z munosib o'rnini topishiga xizmat qiladi.

Ularning kasbiy va ta'limiy dasturlarni ongli ravishda tanlash va egallanglari uchun huquqiy me'yorlarni, tashkiliy, ruhiy-pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlashga ko'maklashadi. Yigit-qizlarimizni jamiyat, davlat, oila oldida o'z mas'uliyatini chuqur anglab yetuvchi shaxslar etib tarbiyalashga zamin bo'lib xizmat qiladi.

Umumlashtirgan holda kadrlar tayyorlash tizimining shakllanishi va faoliyat ko'rsatishining asosiy tamoyillari, mening nazarimda, quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

— barcha xil va turdagi ta'lim muassasalarida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish;

— davlat ta'lim standartlarini joriy etish va ularning faoliyat ko'rsatish mexanizmini ishlab chiqish;

— ixtisosliklar, malaka darajasiga ko'ra mutaxassislarga bo'lgan umumdavlat va mintaqaviy talablarning istiqbolini aniqlash;

— ta'lim tizimini tuzilish va mazmun jihatidan isloh qilish uchun o'qituvchilarni va murabbiylarni qayta tayyorlash;

— davlat va ijtimoiy muassasalarning kasbga yo'naltirish bo'yicha faoliyatini takomillashdirish. Bunda kasb tanlashning bozor ehtiyojlari va imkoniyatlarini e'tiborga olish zarur, toki har bir shaxs o'ziga mos kasbni egallay olsin.

— o'quvchi yoshlarni Vatanga sadoqat, yuksak axloq, ma'naviyat va ma'rifat, mehnatga vijdonan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash;

— ta'lim muassasalarini, birinchi navbatda, umumta'lim maktablarini davlat tomonidan moliyaviy va moddiy-texnikaviy to'liq ta'minlash me'yorlarini oshirish va uning mexanizmini takomillashtirish;

— kadrlar tayyorlash tizimi iste'molchilari — korxonalar, muassasalar, firmalar, hissadorlik jamiyatlari, banklar va boshqa tuzilmalarning imkoniyatlaridan, birinchi navbatda, o'rta maxsus kasb-hunar o'quv yurtlari va oliy o'quv yurtlarining moddiy va moliyaviy bazasini mustahkamlash uchun mumkin qadar kengroq foydalanish;

— kadrlar tayyorlash va ta'lim sohasiga chet el sarmoyalari, xalqaro donorlik tashkilotlari va jamg'armalarining mablag'larini jalb etish;

— qonun doirasida o'quv rejalari, dasturlari va o'qitish yo'riqlari, ta'limiy xizmatlarni belgilashda ta'lim muassasalariga, birinchi navbatda, oliy o'quv yurtlariga mustaqillik berish va o'zini-o'zi boshqarish usullarini joriy etish.

Tabiiyki, bunday murakkab vazifalarni amalga oshirishda davlat va jamiyatning mas'uliyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Davlat va jamiyat kadrlar tayyorlash tizimini uzluksiz rivoj-lantirish va takomillashtirish kafili bo'ligini zarur. Ular yuqori malakali raqobatga qodir mutaxassislar tayyorlash bo'yicha ta'lim muassasalarining faoliyatini uyg'unlashtirishi lozim.

Ma'lumki, xalq ta'limining asosiy bo'g'inini uzluksiz ta'lim tizimi tashkil etadi. Shu sababj bu masalaga alohida diqqat-e'tibor qaratish darkor. Uzluksiz ta'limni davlat ta'lim standartlari va tegishli ta'lim dasturlari bilan ta'minlashda, avvalo, ularyushg jahon talablari darajasida bo'lishiga, yuksak ma'naviyat zaminida qurilganiga asosiy e'tibor berish kerak.

Shuning uchun ham umumta'lim dasturlarini **maktabgacha tarbiya**, boshlang'ich, umumiy **ta'lim va maktabdan tashqari ta'lim** tarzida tuzsak, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Buning uchun quyidagi tizimni asos qilib olsak, qo'zlangan natijalarga erishamiz, deb o'ylayman.

Birinchi. Maktabgacha ta'lim. Uch yoshdan boshlanib, olti-yetti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulkchilik ko'rinishidan qat'i nazar, boshqa xil ta'lim tashkilotlarida olib boriladi.

Ikkinchi. Boshlang'ich ta'lim. 1—4 sinflarni o'z ichiga oladi va bunda o'qish olti-yetti yoshdan boshlanadi.

Uchinchi. Umumiy ta'lim. Bunda o'quvchilarga 5—9sinflar doirasida bilim va tarbiya beriladi.

Alohida ta'kidlab o'tishimiz kerak: umumta'lim maktabi barchamiz uchun majburiy bo'lib, ularda bolalarimizga umumiy bilim asoslarini chuqur o'rgatishimiz kerak, tom ma'noda farzandlarimizning dunyoqarashini shakllantirish va kengaytirishimizga asos solishimiz kerak.

To'rtinchi. O'rta maxsus bilim va kasb-hunar ta'limi. O'qish muddati 3 yildan kam bo'lmagan akademik va kasb-hunar liseylari va kollejlari.

Beshinchi. **Oliy mutaxassislik ta'limi** odatda o'n sakkiz-o'n to'qqiz yoshdan boshlanib, to'rt yildan kam bo'lmagan muddatda davom etadi.

Oliy mutaxassislik ta'limi **bakalavrlik** hamda **magistraturaga** bo'linadi.

Bakalavrlnk — yo'nalishlardan biri bo'lib, bazaviy oliy ta'lim berish demakdir. Unda o'qish kamida 4 yil davom etib, u oliy ma'lumot va tayanch mutaxassislik diplomini olish bilan tugaydi.

Magisgratura — aniq mugaxassislik buyicha oliy kasbiy ta'lim bo'lib, bakalavrlk negizida kamida ikki yil davom etadi. Undagi tahsil yakuniy kvalifikasion davlat attestasiyasi va magistrlik dissertasiyasini himoya qilish bilan nihoyasiga yetkaziladi.

Shu bilan birga, biz o'z ehtiyojlarimizdan va ichki sharoitlarimizdan kelib chiqib, uzluksyz ta'limning rasmiy tizimida yakunlovchi bir bosqichni ham joriy etishimiz kerak. Bu bosqich ikki darajaga bo'linadi, ya'ni aspirantura va Doktoranturadan iborat bo'ladi.

Aspirantura — nihoyasiga yetkazilgan magistrlik negizida 3 yil davom etadi.

Aspiranturaning maqsadi - muayyan mutaxassisliklar bo'yicha oliy kvalifikasiyali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni shakllantirish. Aspirantura akademik va kvalifikasion imtihonlari hamda nomzodlik dissertasiyalarini himoya qilish bilan yakunlanadi. Bu yakunlarga ko'ra tanlangan mutaxassislik bo'yicha «fan nomzodi» ilmiy darajasi beriladi.

Doktorantura — fan nomzodi ilmiy darajasi negizida 3 yil davom etadi, dissertasiya himoya qilish bilan yakunlanadi. Yakunga ko'ra tanlangan mutaxassislik bo'yicha «fan doktori» ilmiy darajasi beriladi.

II. O'zbekistonda ta'lim samaradorligini oshirishda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning ahamiyati.

II.1. Barkamol avlodni tarbiyalashda milliy dasturning ahamiyati.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov: «Aql zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizga farovonlik va taraqqiyot qaror topadi»⁹, degan fikri ta'lim va maorifni yuksaltirish yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalardan biri ekanligini ko'rsatadi.

Ilm-fanning eng asosiy vazifalaridan biri tez sur'atlarda eng yuksak malakali kadrlar tayyorlash, mamlakatning ilmiy potensialini shakllantirish hisoblanadi.

Kadrlar tayyorlash tizimi taraqqiyoti respublikada oprabasiya, tadqiqot va yangi pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish bo'yicha eksperimental bazalarning keng tarmog'ini yaratish va ishga kiritish muammolari bilan har tomonlama bog'liqdir. Ilg'or amaliyot tajriba va ilm-fan yutuqlarining o'zaro mustahkam aloqadorligi taraqqiyot va takomillashuvning garovi hisoblanadi: tajriba sinov jarayoniga jalb etilgan mutaxassislar o'z ilmiy bilim darajalarini yuksaltiradilar, olimlar esa ishlab chiqarish jarayonida o'z ilmiy izlanishlari uchun amalda foydali bo'lgan yo'nalishlarni belgilab olishadi.

Milliy modelda ishlab chiqarish kadrlar tayyorlash tizimining asosiy teng huquqli komponentlaridan biri sifatida e'tiborga olinadi.

Ishlab chiqarish kadrlar tayyorlash tizimida buyurtmachi va iste'molchi funksiyalarini bajarib, kerakli yuksak darajalarda va tegishli sohalar uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonida faol ishtirok etadi.

Ishlab chiqarishning ehtiyojlari kadrlar tayyorlashga bo'lgan ijtimoiy buyurtmani shakllantiradi, kasb-hunarga tayyorlashning maqsadi, vazifasi va mazmunini aniqlaydi, malakaviy talablarni ilgari suradi, yangi texno-logiyalar va

⁹ I.A.Karimov. Xalqimiz jipsligi-tinchlik va tarqqiyot garovi. Oliy Majlis XII sessiyasidagi ma'ro'za // «Ma'rifat» gazetasi, 1998 yil, 29 avgust.

o'qitish shakllarini tanlab olish shartlarini belgilaydi. Ishlab chiqarish buyurtmachi sifatida kadrlarning, umuman, kasb-hunarga tayyorlash tizimining sifati, darajasi va raqobatbardoshligini baholab beradi.

Islohotlar boshlanmasidan oldin ishlab chiqarish va ta'lim muassasasining o'zaro aloqalari shu ahvolda ediki, bitiruvchi talabalar yaxshigina nazariy tayyorgarlik olishsada, kasbiy muammolarni mustaqil hal etishga asoslangan zaruriy ko'nikmalarni egallay olishmasdi. Shu boisdan ham yosh mutaxassislar ko'pincha ishlab chiqarishni yaxshi bilishmas, o'z kasbiy faoliyatini takomillash mahoratini oshiriga uchun faollik ko'rsatmas edi.

Ta'lim muassasalarining ishlab chiqarish bilan yetarli darajada mustahkam va har tomonlama aloqada bo'lmasligi o'qitish mazmuni va texnologiyasining iqtisoddagi ilmiy-texnik taraqqiyotidan orqada qolishiga olib keladi.

Iqtisodiyot, ilm-fan va texnika taraqqiyotining bugungi bosqichi barcha darajalarda mutaxassislar tayyorlash sifatida yuksak talablar qo'ymoqda, ta'lim muassasalarining ishlab chiqarish bilan har tomonlama integrasiyalashuvini taqozo etmoqda.

Ishlab chiqarish va ta'lim samarali integrasiyalashuvining bosh vazifasi kadrlar tayyorlash tizimida ishlab chiqarishning o'rnini va rolini aniqlab olishdir. Buning uchun esa korxonalarda ishlab chiqarish mehnati bilan o'qitishni bog'lash asosida, shuningdek ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida yuksak malakali kadrlar tayyorlashni ta'minlash; korxonalarining ishlab chiqarish potensialidan kadrlar tayyorlashda va hamkorlikda ilmiy-tadqiqot ishlari o'tkazishda foydalanish, ishlab chiqarish ehtiyojlarini hisobga olgan holda texnologiyalar va texnika taraqqiyotining yangi yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish ishlarini yo'lga qo'yish; oliy o'quv yurti yoki ITI ilmiy-amaliy potensialini ishlab chiqarishning ulkan ilmiy-texnikaviy muammolarini hal etishga safarbar qilish lozim bo'ladi.

Kadrlar tayyorlashda tanlangan mutaxassislik bo'yicha ko'nikma va qobiliyatlarni shakllantiruvchi ishlab chiqarish amaliyoti alohida o'rin tutadi.

Ishlab chiqarish amaliyoti: o'quvchi-talabalarning o'zlari tanlagan soha bo'yicha turli lavozim, vazifalar bilan ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etishini; ishlab chiqarish o'quvi doirasida o'tkaziladigan nazariy mashg'ulotlarni; maxsus tayyorgarlikning ba'zi masalalarini ishlab chiqarish sharoitlarida mustaqil o'rganishni; kasbga oid bilimlar, ishlab chiqarish ko'nikma va qobiliyatlarini egallashni; ishlab chiqarishdagi rasionalizatorlik va ixtirochilik faoliyatida, jamoaning ijtimoiy hayotida ishtirok etishni o'z ichiga qamrab oladi.

Kadrlar tayyorlash Milliy modelini amalga oshirishda uzluksiz ta'lim tizimi va uning tarkibiy qismi — kasb-hunar ta'limiga alohida e'tibor qaratiladi. Uzluksiz ta'lim tizimi inson va jamiyatning turli xil ta'limiy ehtiyojlarini qondirishi, bilimlarning qadr-qimmatini va mavqeyini ko'tarish uchun keng imkoniyatlarni yaratib berishi, shuningdek iqtisodiyotning o'zgaruvchan ehtiyojlari sharoitida umumta'limiy, umummadaniy, kasbiy va ilmiy asosda mutaxassislar tayyorlash yo'li bilan fundamental bilimlar berib shaxsni ijtimoiy himoya qilishni ta'minlashi kerak. Bunda shaxsga o'z ijodiy imkoniyatlarini ishga solishi uchun kasbiy-ta'limiy dasturni tanlash huquqi beriladi.

Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxslarni shakllantirish va tez sur'atlarda yuksak malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratadi.

Ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilar hisoblanadi:

- ta'lim-tarbiyaning insoniy, demokratik xarakteri;
- ta'limning uzluksizligi va izchil davomiyligi;
- umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini — akademik lisey yoki kasb-hunar kollejini tanlashning ixtiyoriyligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xarakteri;
- ta'limning davlat ta'lim standartlari doirasida hammabopligi;
- ta'limiy va kasb-hunar dasturlarini tanlashga yondashuvning yaxlitligi va tabaqalashtirilganligi;

- bilimdonlik va talantning rag'batlantirilishi;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg'unligi.

Uzluksiz ta'limning o'ziga xos fazilati shuki, u umumta'lim o'quvidan kasb-hunar ta'limi dasturlariga o'tish izchilligini ta'minlovchi ikki mustaqil tur sifatida: to'qqiz yillik umumiy o'rta va uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini o'zaro bog'lab turadi.

Umumta'lim dasturlari maktabgacha tarbiya, boshlang'ich (I—IV sinflar), umumiy o'rta ta'lim (I—IX sinflar) o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'limni qamrab oladi.

Kasb-hunar ta'limi dasturlari o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy (bakalavriat, magistratura) va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, malaka oshirish, kadrlarni qayta tayyorlashni qamrab oladi.

Shunday qilib, milliy dasturdan ko'zlangan maqsadlar juda ko'p. Avvalo, bu maqsad va vazifalarning to'la amalga oshishi mamlakatimizdagi ijtimoiy-siyosiy muhitning o'zgarishiga olib keladi, jamiyatimizga yangi shaxs komil insonlar vujudga keladi.

Respublikada uzluksiz ta'lim tizimini ishlab chiqishga ilmiy yondashuvning xarakterli xususiyati shuki, unga to'laqonli, uzluksiz va izchil ya'ni, yagona tizim sifatida qaralmoqda.

Uzluksiz ta'lim jarayonlari va hodisalarini o'rganishga tizimli yondashuv shu bilan izohlanadiki, bu usul o'rganilayotgan obyekt tarkibiy elementlarining ichki aloqadorligini, uning boshqa ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlar bilan o'zaro bog'lanishlarini tadqiq etish, o'rganilayotgan kategoriyaga xos xususiyatlar, tendensiya va qonunlarni aniqlash, uni yanada takomillashtirishning samarali yo'nalishlarini belgilash imkonini beradi¹⁰.

Shu nuqtai nazardan, bugun O'zbekistonda amalga oshirilayotgan uzluksiz ta'lim tizimi islohoti bu eskirgan, izdan chiqqan g'oyalar va qoidalar o'rniga, mutlaqo yangi, ilmiy asoslangan, respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar bilan har tomonlama uygunlashtirilgan to'laqonli tizimni amalda joriy etish demakdir.

¹⁰ I.A.Karimov. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining roydevori. T, «Sharq», 1998, 6-bet.

Bu esa o'tmishdagi barcha ijobiy g'oyalardan ham voz kechish degani emas. Erishilgan potensialga tayanib, boy milliy va umuminsoniy, intellektual va ma'naviy merosdan foydalanish, jamiyatning moddiy-texnik bazasi va kadrlar tarkibini yanada taraqqiy ettirish lozimdir.

Shunday qilib, ta'lim tizimidagi yangilanish, taraqqiyot yagona, bir butun jarayonning o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo etuvchi tarkibiy qismlari sifatida — jahon hamdo'stligiga integrasiyalashuv kuchaygan bir sharoitda jamiyat va davlat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilishning hozirgi bosqichida mantiqiy zanjir ko'zga tashlanadi — islohotlar sifat jihatidan ilgarilaridan tubdan farq qiladi: kadrlar tayyorlash jarayoniga barcha davlat va ijtimoiy institutlar jalb etiladi; shaxs faolligiga to'la sharoit yaratilib, bilim va talant rag'batlantiriladi; kadrlar tayyorlash Milliy modeli barcha komponentlarining mustahkam hamkorligi yo'lga qo'yiladi; ta'limning prinsipial yangi turlari yaratilib, ular mutlaqo yangicha mazmun, ularni tashkil etish va boshqarishning yangicha shakllari bilan boyitiladi; ta'limni moddiy-texnikaviy, axborot va kadrlar bilan ta'minlash tubdan o'zgartiriladi.

Mazkur islohotlarning barchasi respublika taraqqiyotining strategik maqsadi — bozor iqtisodiyoti sharoitida qudratli demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo etish, xalqaro hamdo'stlikning teng huquqli a'zosi bo'lgan mamlakat rivojini ta'minlashga qaratilgandir. Yurtboshimiz so'zi bilan aytganda: «Ta'limning yangi modeli ishga tushgach, insonning hayotda o'z o'rnini topish jarayoni tezlashadi», «Ta'limning yangi modeli jamiyatga mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllantirishga olib keladi... «Ta'limning yangi modeli jamiyatimizning potensial kuchlarini ro'yobga chiqarishda juda katta ahamiyat kasb etadi»¹¹.

Barkamol avlodni shakllantirishda maqsadli milliy dasturning barkamol avlod tushunchasini ham chuqur anglab olishni talab etadi. Barkamol avlod deganda jismonan sog'lom, aqlan yetuk va ma'nan yuksak avlodni tushunish lozim. Ana shu uchalla asosda shakllangan avlodni barkamol avlod deb aytish

¹¹II. A.Karimov. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. «Tafakkur jurnali, 1998, 2-son.».

mumkin.

Ana shu uch asosda tarbiyalangan barkamol avlod qayerda shakllanadi? Bunday avlodni shakllanishi oilada, mahallada, ta'lim-tarbiya muassasasida va mehnat jamoalarida shakllanadi. Bularni ichida asosiy o'rnini oila egallaydi. Barkamollikka oilada asos solinadi va boshqa institutlarda oilada olingan tarbiya negizida yangi xususiyatlar rivojlanib boradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov o'zlarining «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarlarida «Inson o'z umri davomida oladigan barcha informasiyaning 70 foizini besh yoshgacha bo'lgan davrda olar ekan deb yozganligi fikrimizni tasdiqlaydi»¹².

Barkamollikni muhim belgisi bu jamiyatga nisbatan dahldorlik hissini shakllanishi bo'lib hisoblanadi. Insonda o'zgalar manfaatini o'ylash hissiyoti oilada shakllanadi. Shuning uchun ham mashhur donishmandlardan biri «oila altruizmning buyuk maktabi»¹³ deb yozib qoldirgan. Oilaga yo'naltirilgan maqsadli ijtimoiy himoya oilani sog'lomlashtirib, barkamol avlodni shakllantirishga yordam beradi. Chunki barkamollikni muhim belgisi xudbinlikni jilovlanganligi, altruistik sifatlarni shakllanishi bilan belgilanadi. Oilada esa oila a'zolari bir-birovini manfaatini kimlardandir qo'rqib emas, balki ichki motivlar asosida ixtiyoriylik bilan ifodalaydi. Oila insonning shunday noyob evolyusion kashfiyotiki u shaxs bilan jamiyat o'rtasida vositachilik rolini bajaradi. Boshqacha qilib aytganda oila o'zini farzandlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish orqali jamiyatni barkamol avlodga bo'lgan ehtiyojini qondiradi.

Hozirgi kunda global miqyosda oilaning inqirozi namoyon bo'lmoqda va bu holatga olimlar, mutaxassislar tomonidan ikki xil baho berilmoqda. Bir guruh olimlar oiladagi o'zgarishlarni inqiroz deb baholasalar, ikkinchi guruh olimlar esa uni modernizasiya ya'ni zamonaviylashuv deb ta'riflashmoqda. Oilaga nisbatan bunday ikki xil yondashuvning mavjudligi oilani inqirozdan olib chiqishni murakkablashtirmoqda. Oxirgi vaqtlarda oila bilan bo'layotgan o'zgarishlar inqiroz ekanligini tasdiqlovchi fikrlar ustunlik qilmoqda.

¹² Karimov I.A. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch». T., 2008, 53-b..

¹³ Антонов А.И., Медков В.М. Социология семьи. Москва, 1996, стр.60.

Oilani inqirozdan olib chiqish uchun uning evolyusion rivojlanish yo'lini o'rganib, uzoq tarixiy jarayonda oila bilan ro'y bergan salbiy o'zgarishlarni sabablarini aniqlab ularni bartaraf qilishga harakat qilish lozim. Oiladagi inqirozning mohiyatini quyidagi ijtimoiy madaniy jarayonlar ya'ni, oilani ijtimoiy-axloqiy regulyasiyasini zaiflashuvi, madaniy ramz va namunalarni o'zgarishi, nikoh, bolali oila, oila avlodlarini birligi qadriyatlarini pasayishida ko'rish mumkin. Shuning uchun oila siyosati mana shu ijtimoiy-madaniy jarayonlarni keltirib chiqargan sabablarni topib, ularni bartaraf qilishga qaratilishi kerak.

Bola dunyoga kelib hayot mazmunini-mohiyatini anglaguncha oilani himoyasiga muhtoj bo'ladi. Oila bolani jismonan sog'lom qilib ta'lim olishga tayyorlab bergandan so'ng, ma'nan va aqlan yuksalish nafaqat oilaga balkim farzandning o'ziga ham bog'liq bo'lib qoladi. Bola jismonan sog'lom bo'lib o'sishi uchun uni organizmiga uglevod, oqsil, yog' va minerallar kerakli miqdorda berib borilishi lozim. Buning uchun esa oila iqtisodiy jihatdan kuchli bo'lishi kerak. Demak, barkamollikni negizida yotgan jismonan sog'lomlik oilani iqtisodiy qudrati bilan belgilanadi. Har qanday mamlakatni boyligi har bir oilani boyligidan tashkil topishi to'g'risidagi oddiy haqiqatni dunyoni barcha rivojlangan mamlakatalri anglab olishgan. Shuning uchun asosiy e'tibor oilani iqtisodiy jihatdan mustahkamlashga qaratish lozim. Bola aqlan yetuk bo'lishi uchun fikrlash organi bo'lgan miyasiga kerak bo'lgan moddalarni ya'ni fosforni berish lozim bo'ladi. Oilada haftasiga bir marotaba baliq iste'mol qilish ta'minlangan bo'lishi kerak.

Jismonan sog'lom voyaga yetayotgan bolada ilmiy va ma'naviy yuksalish imkoniyati yuqori bo'ladi. Buning uchun bola bilim va ma'naviyat nima uchun kerakligi anglab yetishi kerak. Bilimni o'zlashtirishni samarali qiluvchi muhim omil bu qiziqishni shakllanganligi. Qiziqish esa egalik hissi shakllangandan keyin paydo bo'ladi. Fermerda yerga egalik hissi shakllangandan keyin unda samarali mehnat qilishga qiziqish paydo bo'ladi. Ho'sh, yoshlarda bilim egallashga qiziqish shakllanishi uchun nimaga nisbatan egalib hissi bo'lishi kerak? Buning uchun yoshlarda bilimga, ya'ni intellektual mulkka nisbatan egalik hissi shakllanishi

lozim. Ya'ni mening boyligim, mening bilimim degan tushuncha bo'lishi kerak. Ana shunda yoshlarda bilim egallashga qiziqish va mas'uliyat yuzaga keladi. Qiziqish va mas'uliyat esa har qanday jarayonni samarali qiladigan kuchli omillardan bo'lib hisoblanadi.

Yoshlarda intellektual mulkka nisbatan egalib hissi shakllanishi uchun jamiyatda ilm qadrlanishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, ilm va ma'naviyat ahli qadr topishi kerak. Ularni jamiyatdagi mavqeyi va roli oshib borishi lozim. Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov Konstitusiyaning 17-yilligi munosabati bilan ma'ruza qilib hozirgi kunda dunyoda intellektual mulkni ustivorligi o'rnatilayotganligini ta'kidladilar¹⁴. Intellektual mulkni ustivorligi aqliy va jismoniy mehnat o'zaro munosabatida aqliy mehnatni qadri oshib borayotganligi anglatadi. Bu esa o'z navbatida yoshlarni bilim olishga bo'lgan intilishni kuchaytiruvchi omil bo'lib hisoblanadi. Intellektual salohiyat ham maqsadli ijtimoiy himoya obyektini bo'lishi lozim.

Barkamollikni anglatuvchi ma'naviy yuksaklik axloqiy tarbiya jarayonida shakllanadi. Agar inson jismonan sog'lom va aqlan yetuk bo'lsayu, lekin ma'nan qashshoq bo'lsa, bunday odamni barkamol deb bo'lmaydi. Chunki ma'nan qashshoq odamda jamiyatga nisbatan daxldorlik hissi bo'lmaydi. Boshqacha qilib aytganda u jamiyatga nisbatan befarq bo'lib yashaydi. Befarqlikni sababi esa nodonlikdir. Inson oliy ma'lumotli, fan nomzodi, fan doktori va hatto professor bo'lishi mumkin, lekin ayni paytda nodon bo'lib qolishi mumkin. Befarqlikdan xalos bo'lib, daxldorlik hissi bilan yashash uchun axloqiy tarbiya kuchayib ma'naviyat yuksalib borishi kerak. Ma'naviyat esa insonda irodani baquvvat qilib, iymon e'tiqodni butun qilib daxldorlik hissini shakllantirib befarqlikdan xalos etadi.

Barkamol avlodni shakllantirishda maqsadli ijtimoiy himoya oilaga yo'naltirilgan bo'lishi maqsadga muvofiq. Chunki, barkamollik asoslari oiladan boshlanadi. Ushbu xususda muhtaram Prezidentimiz shunday deb yozadi: «...yoshlarimizni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, hayot

¹⁴ Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur (maxsus kurs). Toshkent 1997 y.

abadiyligi, avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan ma'naviyat qo'rg'oni bo'lmish oilani mustahkamlash bugungi kunda barchamizning nainki asosiy vazifamiz, balki insoniy burchimizga aylanishini istardim»¹⁵.

Barkamol avlod mamlakat boyligi har bir oilaning boyligidan tashkil topishini, hamda, xalqni erkinligi har bir odamni erkinligidan tashkil topishini anglab olgan bo'lishi lozim. Ana shu oddiy haqiqatni anglay olgan odamda jamiyatdagi voqyealarga nisbatan, qonun buzilish holatlariga nisbatan befarqlik bo'lmaydi. Ular jamiyatda tartib o'rnatishga xizmat qiladigan ijtimoiy regulyator bo'lgan huquq va axloqqa rioya qilishni nazorat qilishga qodir bo'lishi kerak. Inson zoti tabiatan nazoratga muhtoj, chunki unda tabiatan egoizm bor va nazoratsizlik oqibatida u faqat o'zini manfaatini o'ylaydi. Jamiyat odamlar majmuidan iborat ekan demak jamiyatda ham nazoratga ehtiyoj kuchli bo'ladi. Jamiyatda nazorat tizimini takomillashtirishda yoshlar ya'ni daxldorlik hissi bilan yashayotgan barkamol yoshlar o'zlarini munosib o'rinlariga ega bo'lishlari kerak.

Barkamol avlod boshqalardan nimasi bilan farq qilishi lozim. Unda jamiyatga nisbatan daxldorlik hissi kuchli bo'lishi kerak. U hayotga ongli munosabatga bo'lib biz qanday jamiyat qurayotganligimizni va qaysi yo'l shunday jamiyatga olib borishini aniq tasavvur qilishlari lozim. Va eng muhimi shunday jamiyat qurish uchun jamiyatda tartib bo'lishi kerakligini anglab olishlari lozim. Jamiyatda tartib bo'lishi uchun esa tartib o'rnatadigan ijtimoiy regulyatorlar bo'lgan huquq va axloqqa rioya qilish nazorat qilinishi lozim. Shunday nazorat tizimi shakllanishi kerakki, u jamiyatda qonun ustuvorligini va jazoni muqarrarligini amalda ta'minlasin. Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov Vazirlar Mahkamasidagi yig'ilishlardan birida bizda shunday nazorat tizimi shakllanishi kerakki, agar biror bir shaxs qonunni buzsa, uni jazosini yuqori lavozimda o'tirgan mansabdor shaxs emas, balkim tizim berish kerak¹⁶ deb ta'kidladilar. Ana shunday nazorat tizimi shakllanishi uchun eng muhim shart bu odamlarda va eng avvalo yoshlardagi dahldorlik hissidir.

¹⁵ Karimov I.A. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch». T., 2008, 57-b.

¹⁶ Karimov I.A. Yangi hayotni eskicha qarash va yondashuvlar bilan qurib bo'lmaydi. Xalq so'zi. 2005 y., 8-fevral, 3-bet.

Oilani mustahkamlamay turib, barkamol avlodni shakllantirish jarayoni samarali bo'laolmaydi. Chunki insonning ijtimoiylashuvining 90 foizi oilada amalga oshiriladi. Bu degani bolalarimizni hayotda qanday o'ringa ega bo'lishlari va tarixda yaxshi nom qoldirishlari oiladagi muhit bilan belgilanadi. Oiladagi muhitni sog'lomligi nima bilan belgilanadi yoki qanday muhitni sog'lom muhit deb aytish mumkin? Insoniyat jamiyati yaralibdiki, adolat bilan razolat betinim olishuvda. Bu kurash jamiyatni barcha bo'g'inlarida, jumladan oilada ham namoyon bo'ladi. Ushbu kurashda adolat g'alaba qozonsa muhit sog'lom, agar teskari bo'lsa muhit nosog'lom bo'lib hisoblanadi. Oiladagi sog'lom muhit jamiyatdagi muhitni belgilab beradi. Oiladagi sog'lom muhit farzandlarimizni barkamolliklarini muhim sharti bo'lib hisoblanadi. «Qush uyasida ko'rganini qiladi» degan maqol ham aynan shuni anglatadi.

Yoshlarimiz ularga yaratilgan qulay imkoniyatlardan oqilona foydalanib o'z bilim va ma'naviyatlarini oshirish ustida ishlashlari lozim. Chunki inson miyasiga bilimni majbur qilib singdirib bo'lmaydi. Buning uchun inson o'zi intilib bilimni egallashi kerak bo'ladi¹⁷.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki barkamol avlod asoslari oilada shakllanar ekan, asosiy e'tibor oilani mustahkamlash va sog'lomlashtirishga qaratilib, jamiyatda oilaga yo'naltirilgan siyosat olib borish lozim. Barkamol avlodni shakllantirish jarayonida bolalarni jismonan sog'lom, aqlan yetuk va ma'nan yuksak bo'lishlariga xizmat qiladigan sharoitlarni yaratib, muammoni sosial jihatlariga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

¹⁷ Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.-T.: «O'zbekiston», 2000 y

II.2.Jamiyatni isloh qilish va modernizasiyalashda ta'lim institutlarning o'rni.

Har qanday jamiyatni rivojlanish darajasi shu jamiyatda yashayotgan odamlarni bilimi bilan belgilanadi. Bosh maqsadimiz bo'lgan farovon jamiyatni qurish ham eng avvalo bilimi yetuk kadrlarning mavjudligiga bog'liqdir. Odamlarning ongi va ma'naviyati qanchalik yuqori bo'lsa jamiyat taraqqiyoti shunchalik tez bo'ladi. Kadrlarning saviyasi, yetuklik darajasi ta'lim tizimiga bog'liq, chunki bilim ta'lim jarayonida shakllanadi. Ta'lim insonni hayotga va mehnatga tayyorlashni zarur sharti bo'lib hisoblanadi. Ta'lim tizimlashtirilgan bilim, malaka va mahoratni o'zlashtirish jarayoni va natijasidir. Ta'lim olishni asosiy yo'li o'quv muassasalarida o'qish bo'lib u tarbiya jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir.

Mustaqillik yillarida ta'lim to'g'risidagi konun va kadrlar tayyorlash buyicha milliy dastur asosida respublikamizda har taraflama yetuk kadrlarni tayyorlashga qodir uzluksiz ta'lim tizimi shakllandi. Respublikamiz ta'lim tizimidagi o'quv muassasalarida xalqaro standartlar talablariga mos keladigan moddiy texnika bazasi yaratilgan. Endigi kundagi asosiy vazifa ta'lim tizimini shakliga munosib mohiyatini yaratishdan iborat. Buning uchun ta'lim tizimidagi jarayon respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyatiga mos kelishi kerak.

Ta'lim qator fanlarni o'rganish obekti va predmeti hisoblanadi. Pedagogika, psixologiya, ekonomika, sotsiologiya, ijtimoiy ish. Har biri o'ziga xos tomonlarni o'rganadi. Har biri boshqalari o'rgangan tomonlarni hisobga oladi. Ijtimoiy-ish boshqalari qilolmaydigan ijtimoiy malumotlarga tayanadi. Ta'lim-tizim qo'ydagilardan iborat.

-O'quvchilar soni, o'quvchilar va ularni turli bosqichlardagi holati va boshqa mamlakatlardagi qiyosi o'rganiladi. Ta'limga bo'lgan ehtiyojini, uni ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi rolini tushunish va baholash

-Bilimlarni daraja va sifatini ijtimoiy jihatdan baholash

-Jamiyatni va o'quvchilarni ta'limga munosabatini va uning ijtimoiy qiymatini oshirish

-Ta'limning ijtimoiy statusini aniqlash

-Manaviy ehtiyojlarga uni ta'siring dinamikasini o'rganadi

Ta'lim tizimida ta'limning turlicha darajalari va shakllari mavjud. Mavjud ta'lim tizimi boshlang'ich, o'rta, o'rtamaxsus va oila ta'limidan iborat. Shu sababli ta'lim o'ziga xos xususiyatga ega. Maktabgacha ta'lim haqida gapiradigan bo'lsak sotsiologiya shundan kelib chiqadigan, insonni tarbiyalash bolalikdan boshlanadi. Bu hol maktabgacha tarbiyani ahamiyati to'liq hisobga olinmayapdi. Shu bosqichda insonga xos ko'pgina xususiyatlarni asosi qo'yiladi va uzliksiz ta'lim fenomenida katta rol o'ynaydi.

Bolalar bog'chalari faqatgina bolalarni qamrab turgan joy emas, balki u yerda ularni aqliy rivojlanishi haqida gap borayabdi. Ta'lim sotsiologiyasi no'qtai nazridan jamiyat maktabgacha ta'limni qo'llab quvatlashi, ota-ona bolalarni maktabgacha tayyorlash, shaxsni takomillashtirishga kumaklashuvi lozim. Oldin talabalarni befarqlik va adolatsizlik tashvishlantirgan bo'lsa, hozirgi birinchi navbatda moddiy ta'minot ko'proq qiziqtiradi. Faqatgina 52% talaba o'z kasbi bo'yicha ishlashmoqda. Ta'lim sohasi mo'ammolarini sotsiologik tahlili shuni ko'rsatadiki, xalq ta'limi manaviy boylikni ko'paytiradi. Siyosiy va huquqiy madaniy bilim bilan bir qatorda ta'lim shaxsni estetik va axloqiy xususiyatlarini kuchaytiradi va jamiyat bilan chambarchas bog'liq¹⁸.

Ta'lim samaradorligi va sifatini ochib berish uchun bu ijtimoiy institutga quydagicha baho berish zarur.

Sifat aslida falsafiy kategoriya bo'lib obektda uning real mavjudligida ajratib bo'lmaydigan muhim belgilardan iborat. Sifat bir narsani ikkinchisidan ajratib turadigan xususiyat sanaladi. Sifat har bir obekt va predmetning muayyanligini ifodalaydi. Shuning uchun ham uning barcha sohalarda o'rni bor.

Hatto bozor munosabatlari sharoitida uning qadr-qimmatini yanada oshdi ta'lim sohasida xususan kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'lim mazmunining

¹⁸ Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.-T.: «O'zbekiston», 2000 y

ham sifatini isloh qilish va takomillashtirishga alohida e'tibor berildi. Ta'lim tizimida yangi texnologiya kirib kelishi va doimiy nazorat qilishda ta'lim sifati oshadi. O'zbekistonda ta'lim tizimidagi nizom 1997-yil 29-avgustda joriy qilingan. Milliy dastur ijrosini muoffaqqiyatli yakunlangan. Uning birinchi bosqichi tugagach (1997-2000) uning ikkinchi bosqichi yani sifat bosqichi deb nomlanadi. (2001-2005) . Har bir ijrosining birinchi bosqichida milliy o'quv uslubiy va manaviy asos yaratib uzliksiz ta'lim uchun yaratgan bo'lsa, ikkinchi bosqichda son emas balki sifatga ko'rsatkichlariga ko'proq e'tibor qaratilgan.

Ta'lim sifatini belgilash me'zoni o'sha faoliyat sohasiga oid ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi.

- 1.Narmativ hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosi.
- 2.Talabalarning bilimi darajasi.
- 3.O'quv jarayonlarini tashkil etish.
- 4.Ilmiy pedagogik kadrlar salohiyati.
- 5.Talabalarning mustaqil ishlari.
- 6.Moddiy texnika va o'quv auditoriya ba'zalari.
- 7.Ilmiy tadqiqot ishlari.
- 8.Ma'naviy-ma'rifiy ishlar.
- 9.Ishlab chiqarish va integrasiya.
- 10.Xalqaro hamkorlik.

Agarda yuqorida 10 ta ko'rsatkichlar bo'yicha 1650 ball (66%) dan yuqori ball to'plagan oliy o'quv yurtlar sifat ko'rsatkichiga ega deyiladi.

Ta'limda uzviylik deganda bir ta'lim turi fanlarning dasturi keyingi ta'lim turiga o'tganda muttanosib ravishda o'zgarib oddiydan murakabga qarab to'ldirib borilishiga aytiladi. Uzviylik sifatga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Oliy o'quv yurtlarida uzviylikni ta'minlashda o'quv rejalari to'rtta blokka ajratib tuzilgan. Har bir blokda fanlarning uzviyligi hisobga olingan.

Ta'lim bilan bilish uzviy bog'liqdir, chunki ta'lim sifat va usuliga qarab bilim olishadi.

Ta'lim uzoq davom etadigan jarayon bo'lib bilim ta'limning uzviyligini

ta'minlovchi tushunchadir.

Ta'lim umumiylikka ega bo'lsa bilim xususiylikka egadir. O'qituvchi, ustoz bilim emas balki ta'lim beradi, talaba, o'quvchi esa ta'lim jarayonida bilimga ega bo'ladi.

Didaktika "ta'lim" usullari degan ma'noni bildiradi yani o'qitish demakdir.

Didaktika o'z ichiga bilim, ko'nikma tushunchalarini oladi. Tarbiya nazariyasi ta'lim usullarini singari uzoq davom etadigan jarayon bo'lsa bilim ta'limning uzviyligini ta'minlovchi tushunchadir.

Ta'lim umumiylikka ega bo'lsa bilim xususiylikka egadir.

O'qituvchi bilim emas ta'lim beradi, talaba o'quvchi esa ta'lim jarayonida bilimga ega bo'ladi.

Didaktika ta'lim usullari degan ma'noni bildiradi ma'nosi o'qitish deganidir. Kadrlar deb maxsus kasb tayorgarligidan o'tgan maxsus va mehnat ko'nikmalari tanlangan soha faoliyati bo'yicha tajribaga ega bo'lgan xodimlarga aytiladi.

Tarbiya ham ta'lim singari uzoq davom etadigan jarayon. muassasa yoki ayrim shaxslar faoliyati bilan bog'liq biron bir bo'lgan voqea hodisa, ish-harakat yoki mavjud holatni tasdiqlash, unga guvohlik berish maqsadida bir necha kishi tomonidan tuzilgan hujjat dalolatnoma tuzish, xilma-xil vazifalarni, maqsadlarni kuzlaydi, lekin uning maqsadi sodir bo'lgan voqeya-hodisalarni yoki mavjud holatni qonuniy huquqiy jihatdan isbotlash yoki tasdiqlashdir. Bir qancha holatlarda dalolatnoma tuzish maxsus huquqiy normalar bilan qonuniy belgilanadi. Masalan korxonaning hisob kitob bo'limlari faoliyatida dalolatnomalar avvaldan belgilangan mazmun va davriylikka asosan tuziladi va ular huquqiy jihatdan muhim o'rin tutadilar. Dalolatnoma deyarli barcha hollarda pul mablag'lari va moddiy boyliklarga bog'liq holda tuziladi binobarin u ko'proq moliya- xo'jalik faoliyatida, hisob-kitob, oldi-sotdi va savdo sohalarida keng qo'laniladi.

Jahondagi ko'plab mamlakatlarda oliy o'quv yurtlari o'rta umumiy ta'lim tizimidan keyingi, navbatdagi ta'lim bosqichi hisoblanadi. Oliy ta'lim maktablarining ko'pchiligida o'qish muddati 2 yil yoki undan ko'proq bo'lib, uch

siklda yoki bosqichda amalga oshiriladi¹⁹.

Birinchi sikl ta'limi 3-4 yil (yoki ko'proq) davom etadi va bitiruvchilarga bakalavr diplomi beriladi (AQSh, Angliya, Yaponiya, Avstraliyada). Fransiyada birinchi sikl oliy maktabni bitiruvchilariga metriz, Belgiyada lisans unvoni beriladi. Ikkinchi sikl oliy ta'lim maktablariga birinchi siklni tugatgan bitiruvchilarning 10-25 foizi qabul qilinadi. Masalan, bu ko'rsatkich AQSh da – 20, Buyuk Britaniyada – 15, Avstriyada – 10, Avstraliyada – 7, Yaponiyada – 6 foizni tashkil qiladi. Bu davrda tanlangan yo'nalish bo'yicha ixtisoslashtirilmagan, umumiy, fundamental bilimlar o'qitiladi (Angliya, Ispaniya, AQSh). GFR, Fransiya, Belgiya kabi mamlakatlarda esa 2-sikl oliy ta'lim maktablari talabalari ancha mukammal va bir maqsadga yo'naltirilgan bilimlarni egallaydilar. Lekin hali ular tor profildagi yuqori malakali mutaxassis unvonini olish uchun 2-sikldagi o'qishlarini yana ixtisoslashtirilgan kurslarda 1-2 yil davom ettirishlari lozim.

Ta'limning bunday tizimi o'rta va oliy ta'lim maktablari faoliyatini muvofiklashtirishga, tanlangan soha bo'yicha oliy ta'limdagi izchillikni ta'minlashga samarali ta'sir qiladi.

Muayyan ixtisosliklar bo'yicha maxsus imtihonlar 3 yillik amaliy ish faoliyatidan keyin ham topshirilishi mumkin.

Oliy ta'lim maktablarining 2-siklida o'qish 1-2 yil davom etadi. Bu siklni bitirgan talabalarga magistr unvoni beriladi (AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Avstraliya).

Fransiya va Belgiyada magistr unvoni ma'lum mutaxassisliklarni chuqur o'rganuvchi kurslar bitiruvchilariga ham beriladi. Magistrlik ta'limining o'ziga xos xususiyatlaridan biri – o'quv dasturlarining individuallashtirilganligidir. Bunda o'quv dasturlari talabalar va ularning ilmiy rahbarlari tomonidan tuziladi va kafedralar, dekanatlar tomonidan tasdiqlanadi. Magistraturani bitirgan yoshlar doktoranturaga kirish huquqiga ega bo'ladilar.

Oliy ta'limning 3-sikli, bu – doktoranturadir. Doktoranturaga, asosan, 2-sikl

¹⁹ Oliy va o'rta maxsus, kasb –hunar ta'limi pedagoglari hamda rahbar xodimlarning malakasini oshirishga qo'yiladigan davlat talablari va tayyorgarligi bo'yicha namunaviy dasturlar to'plami. Toshkent. 2000 y.

oliy ta'lim maktablarini muvaffaqiyatli bitirgan talabalar qabul qilinadi. O'qish muddati mutaxassislik turiga ko'ra 1-3 yil. Doktoranturaga 1-sikl oliy ta'lim maktablarini bitirganlar ham kirishi mumkin. Lekin bu holda o'qish muddati 3-5 yilgacha uzaytiriladi.

Birinchi sikl oliy ta'limi qoidaga binoan mutaxassislik bo'yicha umumiy bilimlar berishga yo'naltirilgan. Ta'limni alohida ixtisoslarga bo'lib tashkil qilish, odatda, 3-kursdan boshlanadi. Tor mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlash faqat uchinchi sikldagina amalga oshiriladi.

Ko'p bosqichli oliy ta'lim tizimining bunday o'ziga xos xususiyatlari anglo-amerikancha va fransuzcha model-larda jahon bo'yicha keng tarqalgan. Oliy ta'limning anglo-amerikancha tizimi AQSh, Buyuk Britaniya, Hindiston, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Yaponiya, Isroil va boshqa mamlakatlarda mavjud.

Birinchi sikl oliy o'quv yurtlaridagi o'qish muddati turli mamlakatlarda turlicha. Masalan, AQShda 4 yil, Buyuk Britaniyada – 3 yil. Magistrlik darajasini olish uchun yana 2 yil o'qish lozim (ayrim ixtisosliklar bo'yicha 1-1,5 yil). AQShdagi qator injenerlik oliy maktablarida bakalavrluk diplomini 5 yillik ta'limdan keyin olish mumkin. Tibbiyot sohasida birinchi doktorlik diplomini (stomatologiya, veterinariya sohalari bo'yicha) olish uchun esa 8 yillik ta'lim joriy qilingan. Yaponiyada esa bakalavrluk darajasini 4 yillik ta'limdan so'ng olish mumkin (tibbiyot mutaxassisliklari bundan mustasno), magistrlik darajasiga teng diplomni olish uchun yana 2 yillik ta'lim dasturini o'tash lozim.

Oliy ta'limning fransuzcha modeli Fransiyadan tashqari Belgiya, Shveysariya, Avstriya, Norvegiya va boshqa mamlakatlarda joriy qilingan. Bu tizim talabalarni sinchiklab tanlash asosida qabul qilishni ko'zda tutadi. Talabalar dastlabki 1-3 yilda umumiy dasturlar orqali ta'lim olish bilan bir qatorda bo'lajak tor ixtisoslikni tanlashda faol ishtirok etadilar.

Ko'p bosqichli fransuzcha oliy ta'lim modelining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Fransuz universitetlarida ta'limning dastlabki 2 yilida qator mutaxassisliklar uchun yagona o'quv dasturlari mavjud.

2. Universitetning 2-kursini tugatib, tegishli guvohnoma olgan talaba shu universitetning 3-kursida o'zi tanlagan mutaxassislik bo'yicha o'qishni davom ettirishi yoki boshqa universitetga o'tishi va yoki o'qishni elita oliy o'quv yurtlarida davom ettirishi mumkin.

3. Universitetning 3-kursini bitirgan talabalar «lisans» diplomini oladilar. Bunday diplomni olgan talabalar o'qishlarini 4-kursda davom ettirish yoki o'qishni tashlab o'z mutaxassisliklari bo'yicha amaliy ish bilan shug'ullanish huquqlariga egalari. 4-kursni tamomlagan talabalar esa «metriz» diplomini oladilar.

4. «Metriz» diplomi uning egasiga to'liq oliy ma'lumot olganligidan dalolat beradi.

Fransiyada magistrlik diplomining yagona nusxasi yo'q. Shuningdek, fransuz oliy ta'lim tizimidagi 2-sikl ta'limining maxsus atama nomi ham yo'q. 2-sikl deganida, odatda, 4 yillik birinchi sikl oliy ta'limidan so'ng keladigan navbatdagi bosqich tushuniladi xolos. Fransuzcha oliy ta'lim modelining 2-sikli 1-2 yillik ta'limni o'z ichiga olib, uni bitiruvchilar tanlagan mutaxassisliklari bo'yicha chuqur bilimlarni o'rganganliklari haqida maxsus ixtisos diplomini oladilar.

5. Mutaxassislikni bildiruvchi diplom (masalan, 2 yillik o'qishdan keyin beriladigan texnologiya sohasidagi universitet diplomi) oliy ta'lim tizimidagi 3-sikli ta'lim tizimining birini bitirganliqdan dalolat beradi. Masalan, ixtisoslashtirilgan oliy o'quvyurtining 5 yillik kursini bitirgan talaba injenerlik diplomini olsa, universitetning dastlabki 1-siklini tamomlagan talaba yana 3 yillik kursni bitirgan-dan so'nggina shunday diplom egasi bo'lishi mumkin (L. M. Makarova 1986.-S. 71-73).

6. Ixtisoslashtirilgan oliy o'quv yurtlarida ma'lum soha mutaxassislik diplomini beruvchi yoki doktoranturaga kirish huquqini beruvchi 1 yillik qayta tayyorlov kurslarining keng tarmog'i faoliyat ko'rsatadi.

GFRda esa oliy ta'lim keng miqyosda biron kasbga yo'naltirilgani bilan (xuddi Rossiyadagidek) anglo-amerikanacha va fransuzcha modellaridan farq qiladi. Bu yerda, hatto oliy ta'limning sikllarga bo'linishi ham mavjud emas. Ta'lim

jarayoni 4 yildan 6 yilgacha muddatda amalga oshirilib, bularning hammasi anglo-amerikancha va fransuzcha oliy ta'lim tizimi talablariga unchalik mos kelmaydi. Germaniya oliy o'quv yurtlarida amalga oshiriladigan 5-6 yillik oliy ta'lim xalqaro standart normalariga ko'ra anglo-amerikancha va fransuzcha oliy ta'lim tizimining birinchi sikliga (bakalavr darajasiga) mos keladi, xolos. Shu sababli keyingi yillarda german oliy o'quv yurtlarining diplomlari ahamiyatini ko'tarish maqsadida oliy ta'limning dastlabki bosqichini qisqartirish, ya'ni 4 yillik qilib belgilash haqida takliflar kiritilayapti.

Oliy ta'lim tizimini tashkil qilishdagi qator milliy xususiyatlar boshqa yevropa mamlakatlarida ham mavjud.

Daniya universitetlari 4 yillik oliy ta'limdan so'ng o'z bitiruvchilariga asosiy daraja hisoblangan kandidatlik diplomini beradilar. Lekin bunday diplom injenerlik mutaxassisliklarini egallovchilarga 5 yillik ta'limdan so'ng, tibbiyot mutaxassislariga 8 yillik oliy ta'limdan keyin beriladi. Magistr diplomini olish uchun yana 1-2 yil o'qish lozim bo'ladi. Oliy texnika maktabi bitiruvchilariga (3-4 yil) injenerlik ixtisosligi bo'yicha diplom beriladi (lekin injener-quruvchi diplomini olish uchun 5 yil o'qish lozim bo'ladi).

Irlandiyada gumanitar fanlar va kommertiya soxasida 3 yillik, tabiiy fanlar va turli injenerlik mutaxassisliklari uchun 4 yillik, qishloq xo'jaligi, stomatologiya, veterinariya sohalari uchun 5 yillik, tibbiyot bo'yicha 6 yillik o'quv dasturlarini o'zlashtirib bakalavrlik darajasiga ega bulish mumkin. Magistraturaga bakalavr diplomi bilan kirilib, u yerdagi ta'lim muddati quyidagi jihatlari bilan xarakterlanadi:

gumanitar fanlar va kommertiya – 1 yil;

pedagogik fanlar – 2 yil;

injenerlik fanlari – 1,5-2 yil;

tabiiy fanlar (ximiya) va tibbiyot – 4-6 yil.

Gresiyada oliy ta'lim asosan 4 yillik bo'lib, ayrim sohalari bo'yicha o'qish muddati biroz uzunroq: injenerlik va stomatologiya – 5 yil, tibbiyot – 6 yil. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari, maktabgacha tarbiya muassasalarining

tarbiyachilari universitet maqomida bo'lmagan Pedagogik Akademiya deb ataladigan 4 yillik oliy o'quv yurtlarida tayyorlanadi. O'rta maktab o'qituvchilari esa, universitetlarda tayyorlanadi.

Shvesiyada ham oliy o'quv yurtlari 4 yillik, magistraturada o'qish muddati esa 1 yil (yana qarang: I. F. Figerlind 1990. - S. 104).

Shunday qilib, oliy ta'limni tashkil qilishdagi Yevropa mamlakatlari o'rtasidagi bir xil yondoshuv uning ko'p bosqichlilikida, ta'lim muddatlarini belgilashda, oliy ta'limga asosan yoshlarni (ba'zan kattalarni ham) jalb qilishda ko'zga tashlanadi. Lotin Amerikasi mintaqasi bo'yicha yoshlarni oliy ta'lim maktablariga jalb qilinishi haqidagi raqamlar e'tiborga molikdir. Bu mintaqada 18-23 yoshlardagi aholining 27 %i oliy o'quv yurtlarida o'qiydi. Bu ko'rsatkich Argentina va Urugvayda 44%, Venesuela, Kosta-Rika, Panama, Peru, Ekvador va Chilida 25%, Braziliya va Meksikada 15%ni tashkil qila-di (E. G. Yermolayeva 1992. - S. 110).

Hozirgi kunda xorijiy mamlakatlarning oliy ta'lim sohasida olib borayotgan davlat siyosatlari quyidagi jihatlari bilan xarakterlanadi:

1. Xususiy oliy o'quv yurtlarini tashkil qilish, ularni rivojlantirish borasidagi amaliy ishlar davlatlar tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda (chunki bu sohaga davlat va mahalliy byudjet ko'magidan tashqari yirik xususiy sarmoyalar ham jalb qilinishi imkonini beradi). Bunday yondoshuv, ayniqsa, AQSh, Yaponiya va Fransiyada qo'zga yaqqol tashlanadi.

2. Oliy o'quv yurtlari davlat tasarrufida bo'lgan davlatlar alohida ko'zga tashlanadi (FRG, Avstriya, Daniya, Gresiya). Bu davlatlarda xususiy oliy o'quv yurtlari cherkov tasarrufida bo'lib, ular 2-3 foizni tashkil qiladi.

3. Xususiy oliy o'quv yurtlar tizimi keng rivojlanayotgan mamlakatlar (AQSh, Yaponiya, Fransiya). Ularning mavjudligi davlat tasarrufidagi oliy o'quv yurtlari obro'siga putur yetkazmaydi.

4. Yuqoridagi barcha mamlakatlardagi xususiy oliy o'quv yurtlari moliyaviy jihatdan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

5. Xususiy oliy o'quv yurtini tashkil qilish – bu ko'p sarmoya talab qiladigan

tadbirdir. Bu borada to'plangan tajribalarning dalolat berishicha, faqat iqtisodiy baquvvat firmalar (alohida shaxslar) yoki baquvvat ijtimoiy tashkilotgina o'rta darajadagi xususiy oliy ta'lim maktabi faoliyatini tashkil qila oladi.

Xususiy va davlat tasarrufidagi oliy ta'limni tashkil qilish borasidagi yo'nalishlarni alohida mamlakatlar misolida aniq tahlil qilaylik.

AQSh. Bu yerda oliy o'quv yurtlarining 1870 tasi xususiy sektor tomonidan nazorat qilinadi (qyyoslang: davlat sek-torida 1520ta). Shunga qaramasdan 77 foiz talaba davlat sektoriga tegishli oliy o'quv yurtlarida o'qiydilar. Bunday ko'rsatkich tobora ortib borayotganligi kuzatilmoqsa. Bu xususiy oliy ta'lim maktablarida o'qish juda qimmatligi bilan izohlanadi. Buning natijasida jamiyatning o'rta qatlam vakillarining farzandlari bunday oliy maktabga kirib o'qishga qiynalmoqdalar. AQSh da xususiy oliy o'quv yurtini ochish huquqiy jihatdan biron qiyinchilik tug'dirmaydi (u talabgorlar mikdoriga bog'liq). Bu boradagi qiyinchiliklar, asosan, diplomlarning tan olinishi va xususiy oliy o'quv yurti tomonidan beriladigan malaka bilan bog'liq. Bu muammolarning yechilishida turli mintaqaviy va professional agentliklarning fikrlari ustuvorlik kiladi.

Yaponiya.

Bu yerda 1986 yilgi ma'lumotlarga ko'ra universitet darajasidagi oliy o'quv yurtlaridan 334 tasi – xususiy sektor va 131 tasi – davlat tasarrufiga tegishlidir (ulardan 95 tasi – milliy, 36 tasi – mahalliy universitetlar). Biroq xususiy oliy o'quv yurtining ochilishi mamlakat hukumatining ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Fransiya.

Bu yerda 77 universitet mavjud bo'lib, ulardan 5 tasi katolik cherkovi tasarrufida. Shunga qaramasdan, oliy o'quv yurtlarining uchdan bir qismi turli-tuman muassasalar, assosiasiyalar, fondlar va cherkovlar tasarrufida bo'lib, davlatdan mustaqiddirlar. Xususiy sektor tasarrufidagi ixtisoslashtirilgan fransuz oliy o'quv yurtlarining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: 75 foiz oliy o'quv yurtlari biznes va menejment bo'yicha, yoki 45 foizi umuman savdoga oid mutaxassislar tayyorlaydilar. Xususiy sektor tasarrufidagi injener-texnik xodimlar

tayyorlovchi oliy o'quv yurtlari 35 foizni tashkil kiladi²⁰.

Davlat tasarrufidagi bir profilli oliy o'quv yurtlari institut deb atalsa (masalan, injenerlik sohasida oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlovchilar), xususiy sektordagi shunday oliy o'quv yurtlari «Maktab» deb ataladi. Bunday xususiy «Maktab»lar davlat institutlaridan talabalar miqdorining kamligi bilan ajralib turadi. Aytaylik, injenerlik, boshqaruv va biznes sohalarda mutaxassis tayyorlovchi xususiy oliy o'quv yurtlarida 600 va undan kam (ba'zan bir necha o'nlab) talaba tahsil oladi.

Odatda, xususiy oliy o'quv yurtlarida o'rta maktablarning bitiruvchilari emas, balki oliy ta'limning 2-siklini, ya'ni universitetlar ta'limining 2 yillik kurslarini tugatgan shaxslar o'qiydilar (qarang: L. M. Makarova 1986; M. M. Vladimirova 1985).

Isroil.

Mamlakatda Tel-Aviv (1956) va Xayfa (1963) munisipalitetlari tomonidan tashkil qilingan 2 yirik universitet faoliyat ko'rsatadi. Ular asosan munisipalitetlar mablag'i asosida ish yuritishlari tufayli, xususiy oliy o'quv yurtlari hisoblanadi. Shu sababdan ta'lim sohasidagi davlat tomonidan belgilanadigan tartib-qoidalar bu oliy o'quv yurtlariga unchalik taalluqli bo'lmaydi. Mamlakatda yana bir xususiy oliy o'quv yurti – AQSh yahudiylarining diniy tashkilotlari mablag'i evaziga 1955 yil Tell-Aviv shahri yaqinidagi Ramot-Gane shahrida tashkil qilingan Bar-Ilan nomli Universitet faoliyat ko'rsatadi. Isroilning universitet maqomiga ega bo'lmagan ixtisoslashtirilgan professional oliy o'quv yurtlari esa kollej maqomidagi maktablardir (boshqa mamlakatlardagi o'rta maxsus o'quv yurtlari maqomiga mos keladi). Ular ham xususiy sektor hisobida bo'lib, turli-tuman (milliy va xorijiy) yahudiylar tashkilotlari yoki turli shaharlarning munisipalitetlari orqali boshqariladi. Biroq, bularning hammasi Isroil hukumati oliy ta'lim masalalariga aralashmaydi degan tasavvur tug'dirmasligi kerak. Chunki xususiy oliy o'quv yurtlari byudjetining yarmidan ko'pi davlat hisobidan to'lanadiki, bu mamlakatdagi oliy o'quv yurtlari faoliyatlariga yetarli miqdorda davlat ta'sirini

²⁰ Oliy va o'rta maxsus, kasb –hunar ta'limi pedagoglari hamda rahbar xodimlarning malakasini oshirishga qo'yiladigan davlat talablari va tayyorgarligi bo'yicha namunaviy dasturlar to'plami. Toshkent. 2000 y.

o'tkazish imkoniyatini beradi.

Avstraliya.

1. Mamlakatda 24 universitet mavjud bo'lib, bu oliy ta'lim maskanlarida 9 200 ming talaba tahsil oladi. Oliy ta'lim maqomiga ega bo'lgan 47 kollejdada 200 mingga yaqin talaba bilim oladi.

2. Mamlakatda 1987 yilda tashkil qilingan bitta xususiy oliy o'quv yurti – Bond universiteti mavjud.

3. Oliy o'quv yurtlari kollejlarning byudjeti davlat va xususiy sektor hisobidan ta'minlanadi. 1974 yilda mamlakatning federal hukumati shtatlar hamkorligida oliy o'quv yurtlarini to'laligicha davlat byudjetidan ta'minlashga urinib ko'rdi. Ammo bu niyat qiyinligi tufayli amalga oshmay qoldi.

Germaniya.

1. Mamlakatda 1987-88 o'quv yilida davlat tomonidan boshqariladigan 50 universitet, 7 ta oliy o'quv yurtlarining birlashmasi, 2 ta Oliy Pedagogika maktabi faoliyat ko'rsatdi.

2. Mamlakatda xususiy sektor tasarrufidagi 9 ta ilohiyat oliy o'quv yurtlari mavjud.

3. Davlat tasarrufidagi oliy o'quv yurtlari federal Yer boshqaruv organlari tomonidan mablag' bilan ta'minlanadi.

Norvegiya.

1. Mamlakatdagi 130 oliy o'quv yurti davlat tasarrufida faoliyat ko'rsatadi.

2. 24 ta oliy o'quv yurti xususiy sektor tasarrufida.

3. Oliy o'quv yurtlarini boshqarishda davlat ta'siri kuchli (shu sababli faqatgina 1 ta oliy o'quv yurti – er-kin ilohiyat fakulteti mustaqil hisoblanadi).

4. Xususiy oliy o'quv yurtlari (23 ta) davlat hisobi-dan katta subsidiya oladilar va shu sababli markaziy va mahalliy hokimiyatga tobelar.

Gollandiya.

1. Mamlakatda 14 universitet mavjud bo'lib, ulardan 11 tasi davlat, 3 tasi xususiy sektor (2 katolik va 1 protestant cherkoviga qarashli) tasarrufidadir.

2. 2–3 yillik professional oliy ta'lim maktablarining ko'pchiligi xususiy

sektor tasarrufida (masalan, 1986 yilda bunday maktablar 385 ta bo'lib, ulardan 320 tasi (85 foizi) xususiy sektorga qarashli edi).

Avstriya.

1. Mamlakatdagi hamma oliy o'quv yurtlari davlat ta-sarrufida.
2. Federal hukumat ularni mablag' bilan ta'minlay-Di, faoliyatini belgilaydi va nazorat qiladi.
3. Oliy o'quv yurtlari tarkibiga (akademik sektor) 12 universitet va 6 oliy badiiy maktab kiradi.
4. Ma'lum sohadagi oliy o'quv yurtlari (pedagogik, tibbiy, savdo va h. k.) tegishli vazirliklar tomonidan boshqariladi.

Ispaniya.

1. Bu mamlakatdagi 545 universitet (bu yerdagi hamma professional institutlar universitet deb yuritiladi) davlat tasarrufida.
2. 33 universitet – xususiy.
3. Universitet maqomiga ega bo'lmagan 20 ta xususiy oliy o'quv yurtlari mavjud.

Gresiya.

1. Mamlakatdagi hamma oliy o'quv yurtlari davlat tasarrufida (bu yerda, hatto universitet ta'limi faqat davlat tomonidan amalga oshirilishi haqida qonun bor).
2. Oliy ta'lim tizimidagi xususiy texnik va professional maktablar 1982 yilda chiqarilgan yuqoridagi qonunga binoan davlat tasarrufiga o'gkazildi va texnik ta'lim institutlari deb nomlandi.

Shvesiya.

Mamlakatda 8 universitet faoliyat ko'rsatadi. Ular Upsal, Lunde, Geteborg, Stokgolm, Umeo va Lincheping universitetlari va Lupeodagi texnologik universitet, Shved qishloq xo'jaligi fanlari universitetlaridir. Bundan tashqari 58 ta ixtisoslashtirilgan institutlar mavjud bo'lib, ular ilmiy daraja berish huquqlariga ega. Mamlakatdagi maktablar, barcha universitetlar va ko'pchilik institutlar davlat tasarrufida.

Quyida oliy ta'lim tizimi boshqarilishini moliya-viy nuqtai nazardan ko'rib chiqamiz.

AQSh.

1. Oliy o'quv yurtlarini mablag' bilan ta'minlash, ko'pincha, ularning qaysi siklda ta'lim berishlariga bog'liq (yarim rasmiy).

2. Oliy o'quv yurtlarining birinchi katta guruhiga doktorlik ilmiy darajasini berish huquqiga ega bo'lgan universitetlar kiradi; birinchi va ikkinchi darajali ilmiy-tekshirish universitetlari, birinchi va ikkinchi I darajali doktorlik darajasini beruvchi universitetlar ham ana shu guruhga kiradi; oliy o'quv yurtining moliyaviy ta'minlanishi ana shu darajalar salohiyatiga bog'liq.

3. Birinchi darajali ilmiy tekshirish universitetlari (ular 50 ta) bir yilda kamida 50 ta ilmiy ishga doktorlik darajasini berishlari lozim; AQSh federal hukumati buning uchun katta miqdordagi mablag' manbalarini belgilaydiki, bu mablag'larning barchasi aniq ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun sarflanadi.

4. Ikkinchi darajali oliy o'quv yurtlarining soni 100 ta bo'lib, ularning faoliyati ham himoya qilingan doktorlik dissertasiyalarining soniga ko'ra baholanadi.

5. Doktorlik unvonini berish huquqiga ega bo'lgan birinchi razryadli universitetlar kategoriyasiga bir yilda kamida 40 ta dissertasiya yoklanadigan oliy o'quv yurtlari kiradi; yoki bunday oliy o'quv yurtlarining kategoriyasi davlat tomonidan ajratilgan mablag'ning bir yilda 3 mln dollardan kam emasligiga qarab belgilanadi.

6. AQSh dagi nufuzli oliy o'quv yurtlarining ikkinchi guruhini ko'p sohali universitetlar va kollejlari tashkil qiladi. Bu oliy o'quv yurtlarida gumanitar fanlar bilan birgalikda tabiiy va muhandislik fanlari bo'yicha ham mutaxassislar tayyorlanadi (1000 dan kam bo'lmagan talabalar kontingenti bilan). Bunday oliy o'quv yurt (kichik universitet va kollej)lar bakalavrluk va magistrlik unvonlari berish huquqiga egadir; ular ikki kichik guruhlariga bo'linadilar va ularning faoliyati. professional ta'lim dasturlarining miqdori bilan belgilanadi.

7. AQSh oliy o'quv yurtlarining uchinchi guruhini gumanitar va tabiiy fanlar

kollejlari tashkil qiladi (AQSh da ularni an'anaga ko'ra erkin sanoat kollejlari deb ataydilar). Ulardan 200 ga yaqini 1 darajali kollejlari hisoblanadi (Keyingi 50 yil ichida ularni bitiruvchilarning ma'lum bir qismi mamlakatdagi 40 ta yetakchi oliy o'quv yurtida doktorlik darajasini oldilar).

8. Professional maktablar va tor ixtisosli oliy o'quv yurtlari (muhandislik, adliya, tibbiyot, o'qituvchilik, biznes maktablar va h. k.) AQSh oliy o'quv yurtlarining 4-guruxini tashkil qiladi.

9. Mahalliy va «kenja» kollejlari (2 yillik ta'lim) Ham o'rta maktabdan keyin amalga oshiriladigan ta'lim tizimining bir bo'g'inini tashkil qiladi.

10. Davlat tasarrufidagi oliy o'quv yurtlarining 50 foizigacha, xususiy oliy o'quv yurtlarining 1 foizga yaqini federasiya boshqaruv organlari tomonidan mablag' bilan ta'minlanadi; mahalliy (4 yillik) kollejlari to'lig'icha shtatlar ma'muriyatlari hisobidan mablag' bilan ta'minlanadi.

11. Federal hukumat tomonidan oliy o'quv yurtlariga ajratiladigan mablag'lar belgilangan maqsadlar uchun sarflanadi (ilmiy tadqiqotlar, qurilish, stipendiya va x. k.).

Xulosa

Hozirgi davr globallashuv jarayoni kengayib borayotgan, fan-texnika taraqqiyoti rivojlanib, yuksak texnologiyalar ijtimoiy hayotning barcha sohalariga ta'sir ko'rsatayotgan, insonparvarlik tamoyillari xalqor munosabatlarning yetakchi tamoyiliga aylanib borayotgan davrdir. Bugungi kunda insoniyat tomonidan qo'lga kiritilgan barcha yutuqlar, kashfiyotlar tajribalarni o'rganib adolatli, insonparvar, zamonaviy davlatchilik asoslarini barpo etishda, O'zbekistonda demokratik, huquqiy va fuqarolik jamiyatini qurish, barkamol avlodni voyaga yetkazishda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Ta'lim to'g'risida»gi qonunning o'rnini hamda ahamiyati nihoyatda katta bo'lib ta'lim sohasidagi islohotlar natijasida biz jahondagi taraqqiy etgan davlatlarning tajribalaridan ijobiy foydalangan holda milliy davlatchilik modelimizni barpo etmoqdamiz. O'zbekistonda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»dan ko'zlangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish mamlakatimizdagi ijtimoiy-siyosiy muhitning yanada yaxshilanishiga olib keladi, jamiyatdagi yangi shaxs komil insonlar shakllanishi uchun zarur bo'lgan imkoniyatlarni vujudga keltiradi.

Ikkinchidan, kadrlar tayyorlash milliy dasturini hayotga tatbiq etish, kishilar, fuqarolarning jamiyatdagi o'z o'rnini topish jarayonini tezlashtiradi. Kadrlar tayyorlash milliy modelini hayotga tatbiq etish yoshlarning o'ziga ishonchining bo'lmasligi, jamiyatda o'z o'rnini topa olmasligi kabi salbiy holatlarning oldini olish imkoniyatini vujudga keltiradi. O'zbekistonda o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv muassasalari tashkil etilib faoliyat boshlashi bilan yangi ta'lim tizimining ijobiy jihatlari ko'zga tashlanib, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida ta'lim olgan komil insonlarning jamiyatga, ishlab chiqarishga kirib borishi boshlanadi. Bugungi kunda bu jarayon yildan – yilga takomillashib, salmog'i tobora oshib bormoqda.

Uchinchidan, Kadrlar tayyorlash milliy modeli jamiyatimizning keng potensial salohiyatdan foydalanishda katta ahamiyatga ega bo'lib jamiyatdagi har bir inson o'ziga xos salohiyatga ega bo'ladi. Agar har bir inson o'z imkoniyatlari

va iste'dodini, o'zining, oilasining farovonligi uchun, xalqi va yurti uchun sarf etsa, bu jamiyat nihoyatda yuksak natijalariga erishish imkoniyatiga ega bo'ladi.

To'rtinchidan, Milliy dasturning amalga oshirilishi jamiyatda mustaqil fikrlaydigan shaxsning shakllanishiga olib keladi. Bunday shaxslarning kupayishi jamiyatda ongli hayot kechirish tizimini vujudga keltiradi. Har bir inson o'z aqli, o'z mehnati, yaratuvchilik faoliyati asosida yashab, fuqarolarda g'oyaviy, mafkuraviy immunitetning shakllantirilishi mamlakatda milliy xavfsizlikning mustahkamlanishiga olib keladi.

Beshinchidan, O'zbekiston xalqi o'z oldiga oldiga huquqiy demokratik jamiyat qurishni maqsad qilib qo'ygan bo'lib, bu yo'lda muhim vazifalar amalga oshiriladi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining hayotga tatbiq etilishi xalqaro hamjamiyatda o'z o'rnimsizni mustahkamlashimizga olib keladi. Chunki, jamiyat taraqqiyotining bugungi bosqichi da hal qiluvchi omil intellektual salohiyatda, fikrda, aqlda ilg'or texnologiyalarda bo'lib, ularni hayotga tatbiq qilish uchun Kadrlar tayyorlash milliy dasturi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Prezident Islom Karimov tomonidan aytilgan «Kuch – bilim va tafakkurda» degan g'oyaning bugungi kundagi ahamiyati yanada oshib bormoqda.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Ta'lim to'g'risida»gi qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo'lib, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri o'qib bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir.

Dastur kadrlar tayyorlash milliy modelini ro'yobga chiqarishni, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o'zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutadi.

Shunday qilib, kadrlarlash milliy modelida ta'lim-tarbiya jarayonida qanday insonni shakllantirish lozim, ta'lim tarbiya natijasida inson qanday bo'lishi kerak, degan savollarga muntazam javob izlash zarurati mavjudligicha qoladi va asrlar osha mafkuralarimiz tomonidan yaratilgan «komil inson tarbiyasi» g'oyalariga hamohang ravishda rivojlantiriladi.

Xulosa qilib aytganda: «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da belgilangan vazifalarning amalga oshirilishi barkamol shaxsni – insonni adolatli, insonparvar jamiyatning shakllanishiga, dunyoviylik asosida shakllangan dunyoqarashga, yangicha ong vatafakkurga ega bo'lgan shaxslarning ko'payishiga va bu o'z navbatida ijobiy ravishda «portlash effekti»ning sodir bo'lishiga olib kelishi Prezident Islom karimov asarlarida nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. O'zining qadr-qimmatini anglaydigan irodasi baquvvaat, iymoni butun hayotga aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash imkoniyati yaratilib, shunday keyimn barcha fuqarolarning ongli turmush kechirishi jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi. Har bir fuqaro o'z aqli, o'z tafakkuri, o'z mehnati, o'z mas'uliyati bilan, ongli tarzda, ozod va hur fikrli inosn bo'lib yashaydi. Bunday odamlar uyushgan jamiyat, ular barpo etgan ma'naviy-ruhiy muhit O'zbekistonda bozor munosabatlariga asoalangan, dekmokratik, huquqiy, fuqarolik jamiyati barpo etish jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Shu asosda O'zbekistonda Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. I.A.Karimov. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T. 1992.
2. I.A.Karimov. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T., «Shark», 1997.
3. I. A.Karimov. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T. «Sharq», 1997.
4. I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T. 1997.
5. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Toshkent 1997 y.
6. I.A.Karimov Millatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat qilsin. T. 1998.
7. I.A.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. 1998.
8. I.A.Karimov. Ma'naviy yuksalish yo'lida. T. 1998.
9. I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T. 1999.
10. I.A.Karimov. Xalqimiz jipsligi-tinchlik va tarqqiyot garovi. Oliy Majlis XII sessiyasidagi ma'ro'za. // «Ma'rifat» gazetasi, 1998 yil, 29 avgust.
11. I.A.Karimov. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. «Tafakkur jurnali, 1998, 2-son» 3 B.
12. I.A.Karimov. Sog'lom avlod - xalqimiz kelajagi. «Xalq so'zi» gazetasi, 8 dekabr 1999 y.
13. И. А. Каримов. Юксак маънавият энгилмас куч. Тошкент. 2008 й.
14. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. - Т.: О'zbekiston, 2011.
15. Каримов И.А. 2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади. Тошкент 2012 й.
16. Каримов И.А. Тарихий хотира ва инсон омили буюк келажакимиз гаровидир.Рисола, Тошкент 2012 й.

17. Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur (maxsus kurs). Toshkent 1997 y.

18. Oliy va o'rta maxsus, kasb –hunar ta'limi pedagoglari hamda rahbar xodimlarning malakasini oshirishga qo'yiladigan davlat talablari va tayyorgarligi bo'yicha namunaviy dasturlar to'plami. Toshkent. 2000 y.

19. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.-T.: «O'zbekiston», 2000 y.

20. Oliy ta'lim. Me'yoriy hujjatlar to'plami. Akademik. S.S. G'ulomov tahriri ostida. Toshkent Sharq, 2001 y.

21..X. Ibragimov, Sh. Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi (darslik). T., «Fan va texnologiya», 2008.

22. E.Giddens "Sotsiologiya" T.2002-yil

23. "Umumiy sotsiologiya" T. 1999-yil

24." Sotsiologiya " T. 2000-yil

25." Ayol-oila-huquq ". Davra suhbat materiallari. T. 1998-yil

26.N.S.Aliqoriyev «Sotsiologiya va ta'lim»

27." Barkamol avlod " T. 1997-yil

28. Internet saytlari:

- www.ref.uz
- www.Google.uz
- www.Yandex.uz
- www.gov.uz
- www.aci.uz

